

*А*

Бош муҳаррир:  
**Раъно ТОЛИПОВА**

Масъул котиб:  
**Шаҳноза ЖЎРАЕВА**

Муҳаррирлар:  
**Ўғилой МАВЛОНОВА**  
**Доно ХЎЖАЕВА**  
**Қундузхон**  
**ҲУСАНБОЕВА**

Саҳифаловчи:  
**Гулноза ВАЛИЕВА**

Матн терувчи:  
**Нодира**  
**МИРЗААҲМЕДОВА**

Таҳрир ҳайъати:  
**ЙЎЛДОШЕВ Қозоқбой**  
**МУСАЕВ Усмонали**  
**МАДАЕВ Омонилла**  
**МАҲМУДОВ Низомиддин**  
**МИРҲАБИБОВА Наргиза**  
**НОРМАТОВ Умарали**  
**НУРИДДИНОВА Дилдора**  
**ОДИЛОВА Саодат**  
**РАҲМОНОВ Ваҳоб**  
**ТОЖИБОЕВ Рустам**  
**ТОШМИРЗАЕВА Шарофат**

# **TIL VA ADABIYOT TA'LIMI**

**ЎЗБЕКИСТОН  
РЕСПУБЛИКАСИ  
ХАЛҚ ТАЪЛИМИ  
ВАЗИРЛИГИНИНГ  
ИЛМИЙ-МЕТОДИК  
ЖУРНАЛИ**

**2010/10**

1991 йилдан  
чиқа бошлаган

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот  
агентлигида 2006 йил 22 декабрда  
0055-рақам билан рўйхатга  
олинган

ISSN 2010-5584

Таҳририят манзили:  
100027, Тошкент шаҳри,  
Фурқат кўчаси, 2-уй.

Тел.: 245-21-93  
245-68-40

E-mail: [til@sarkor.uz](mailto:til@sarkor.uz)  
Веб-сайт: [www.til.sk.uz](http://www.til.sk.uz)



## **Mundarija**

### **Barkamol avlod – mamlakat kelajagi**

**Valijon QODIROV.** Adabiy ta'limda g'azal janrini o'rgatish .....3

### **Metodika**

**Matluba SADRIDDINOVA.** 7-sinfda zidlov bog'lovchilarini o'rganish ..... 15

**Dono USMONOVA.** 6-sinfda «Xalq qo'shiqlari» mavzusini o'rganish ..... 19

### **Adabiyotshunoslik**

**Дилрабо КАЗАКБАЕВА.** Шайх Аҳмад Тарозий таржеъбандлари ..... 24

**Озода БОЛТАБОЕВА.** Хилватийнинг ахлоқий-таълимий қарашлари ..... 28

**Гулнора АВЕЗОВА.** Хуршид Дўстмуҳаммаднинг «Бозор» романида мулоқот шакллари ифодаси ..... 30

### **Adabiy taqvim**

**Улуғбек ДОЛИМОВ.** Саидахмад Васлий Самарқандий ..... 38

### **Bir g'azal tahlili**

**Абдурашид АБДУҒАФУРОВ.** «Тилим лолу сиришким қон» ... 48

### **Qiyosiy tilshunoslik**

**Нилуфар АБДУЛЛАЕВА.** Туркий тилларда юкламаларнинг полисемантик, полифункционал табиати ..... 56

### **Leksikologiya**

**Носиржон УЛУҚОВ.** Мустақиллик даври хрононимлари ..... 61

### **Atamashunoslik**

**Эркин ЮСУПОВ.** Иқтисодий терминларнинг ясашиши ..... 64

### **Amaliy foydalanish uchun**

Mumtoz badiiyat bo'yicha test savollari ..... 68

Bahr-u bayt musobaqalari uchun matnlar ..... 83

### **Sinfдан tashqari mashg'ulotlar**

**Саодат ҚАМБАРОВА.** Наволарга йўғрилган ғазалхонлик .... 87

### **So'ragan ekansiz**

**Фотима НУРИДДИНОВА.** Этель Лилиан Войничнинг «Сўна» романи таржимаси ҳақида ..... 91

### **So'z mulkiga sayohat**

**Тўра НАФАСОВ.** Бешёғоч/Бешоғоч ..... 94

---

## BARKAMOL AVLOD – MAMLAKAT KELAJAGI

---

### **Adabiy ta'limda g'azal janrini o'rgatish**

G'azal qadimdan ajdodlarimiz o'qigan maktab, madrasalarda muntazam o'rgatib kelingan. Ayniqsa, so'nggi ikki asr mobaynida Navoiy, So'fi Olloyor, Mashrab va Huvaydo ijodi maktab, madrasa dasturlari, o'quv rejalaridan mustahkam joy olgan. Keyingi davrlarda ham maktab ta'lim tizimida bu an'ana davom ettirilib, aruz she'riyati, xususan, g'azallar izchil tarzda o'rgatiladi.

Mustaqillikdan so'ng mumtoz adabiyotni, shu jumladan, g'azaliyotni o'rganish, unga yondashish yangi sifat bosqichiga ko'tarildi. Umumta'lim maktablari uchun takomillashgan bir nechta darsliklar avlodi yaratildi. Darsliklar va ularning mualliflari o'quvchilarning yosh xususiyatlari, dunyoqarashi hamda ko'zlangan didaktik maqsaddan kelib chiqib, yetuk g'azalnavislarning badiiy jihatdan barkamol ijod namunalarini kiritdilar.

Umumta'lim maktablarining amaliyotdagi dasturga ko'ra g'azal 6-sinfдан boshlab o'qitiladi. Avvalgi darsliklarni olsak, ularda ham g'azal janriga joy berilgan. Masalan, B. Sarimsoqov va boshqalarning 1997-yili nashr etilgan darsligiga Ogahiy («Choy», «Faqr eliga xizmat qil»), Muqimiy («Podshoh yo'qlatsalar nogoh gado deb axtaring»), Zavqiy («Jahonda kamsuxan kim bo'ldi»), Avaz O'tar («Til») g'azallari kiritilgan edi. Ogahiyning tasavvufiy yo'nalishdagi «Faqr eliga xizmat qil», Muqimiyning ishqiy-intim ruhdagi «Axtaring» radifli g'azalini nazardan soqit qilganda, bu darslikka kiritilgan g'azallar mazkur sinfda o'rgatilishining amaliyotga muvofiqligi o'tkazilgan tajribalar, kuzatuvlar, o'qituvchilar bilan suhbatlarda o'z tasdig'ini topdi. Ayniqsa, Zavqiy, Avaz

O'tar g'azallari ifodaning uncha murakkab emasligi, bugungi adabiy tilga yaqinligi, o'zlashgan so'zlarning kamligi, didaktik mazmuniga ko'ra o'spirinlarning yosh xususiyatlariga, bilim va ko'nikmalari darajasiga mosligi bilan adabiyot muallimlarini qoniqtirgan edi. Shuning uchun amaliyotdagi dasturga Avaz O'tar she'rlari sirasida g'azallarining berilganligi maqsadga muvofiq bo'lgan deyish mumkin.

6-sinflarning hozirgi dasturiga ko'ra g'azal haqida nazariy ma'lumot berilmaydi. Lekin ularni o'qish, tahlillash davomida o'quvchilar janrning tuzilishi (baytlardan iboratligi), qofiyalanish tartibi bilan tanishadilar, ifodali o'qish asnosida g'azalga xos bo'lgan musiqiylikni tuyadilar. Eng asosiysi, g'azalni misrama-misra, baytma-bayt tahlil qilish, ma'nosini, badiiyatini sharhlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha dastlabki qadamlar tashlanadi. Bu sinfda tushunilishi qiyin so'zlar, murakkab sintaktik qurilmalar izohi berilishi o'ziga xos bo'ladi. Ya'ni o'quvchiga osonlashtirish maqsadida alohida so'zlar bilan birga so'z birikmalari, jumlar va hatto misralar vaziyatdan kelib chiqib lug'atda yaxlit izohlanadi.

Masalan, «Til» she'rining birinchi bayti ikkinchi misrasi bo'lmish «Til vositai robitali olamiyondur» jumlasida darslikning shu sahifasi ostidagi lug'atda «Til kishilar o'rtasidagi aloqa vositasidir» tarzida yaxlitligicha, ikkinchi baytdagi «g'ayr tili» birikmasi «chet tili», «sa'y qiling» so'zi «g'ayrat qiling» deya izohlanadi. Ayrim forscha izofalar izohlanmaydi. Masalan, uchinchi baytdagi «Bilmakka ani g'ayrat eting foydayi kondur», to'rtinchi baytdagi «Onda o'qiganlar bori yaktoyi zamondur» misralaridagi izofa va inversiyalar ma'nolari berilmagan. O'quvchilar o'qituvchining yo'naltiruvchi savollari yordamida «Bilmoqqa g'ayrat qilinglarki, koni foydadir», «Unda o'qiganlarning barchasi zamon yagonasidir» mazmunida ekanligini mantiqiy fikrlash orqali anglab oladilar.

Umuman, adabiyot o'qituvchisi har qanday asar tahlilida shogirdlarida ana shu fazilatni – matndagi so'z, birikma,

jumlalarni mantiqiy fikrlash bilan idrok etish qobiliyatini o‘stirib borishi lozim.

Amaliyotdagi dasturga ko‘ra 7-sinfda Turdining «Tor ko‘ngullik beklar», Uvaysiyning «Mehnat-u alamlarga mubtalo Uvaysiyman» g‘azallari o‘rganiladi. Oldingi dasturda Atoiyning to‘rtta ishqiy mavzudagi hamda Maxmurning hajviy ruhdagi g‘azallari ham bor edi. Biz 7-sinf darsligini yozishda g‘azal haqida nazariy ma‘lumot berish yuzasidan muayyan tajribalar o‘tkazdik va ular darslik hamda o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmada aks etgan<sup>1</sup>. 6-sinfda janr bilan tanishgan, dastlabki namunasini yod olgan o‘quvchiga bu sinfda nazariy ma‘lumotni tushuntirish bir muncha oson kechadi. Alohida soat ajratilmaganligi bois bu sinfda birinchi o‘rganiladigan g‘azal (amaliyotdagi dastur bo‘yicha Turdining «Tor ko‘ngullik beklar») tahliliga bag‘ishlangan darsda dastlabki o‘n daqiqada bu ma‘lumotlarni o‘quvchilarga yetkazish o‘rinli bo‘ladi yoki alohida qo‘shimcha dars o‘tkazish mumkin. Nazariy ma‘lumotda:

a) g‘azal so‘zining lug‘aviy ma‘nosi, janrning mumtoz she‘riyatda tutgan o‘rni, ya‘ni atama arabcha so‘z bo‘lib, «ayollarni maqtash, ta‘riflash» ma‘nosini berishi, bu janr qadimdan eng ahamiyatli va e‘tiborli she‘r shakli bo‘lib kelganligi, deyarli barcha shoirlar unga murojaat qilganliklari to‘g‘risida tushuncha beriladi;

b) g‘azalning shakliy tuzilishi, ya‘ni baytlardan tashkil topishi, matla‘, maqta‘ va shoirning taxallusi asosan maqta‘da berilishi darslikdagi bir qator g‘azallar misolida tushuntiriladi;

d) qofiyalanishi, radif to‘g‘risida: asosan a-a, b-a, d-a, e-a... tarzida qofiyalanishi, mazkur harflar bilan belgilanishining ma‘nosi olingan g‘azal misolida izohlanadi;

e) g‘azalda qalamga olinadigan mavzularga to‘xtaladi, bu she‘r shaklida barcha mavzular: ijtimoiy-siyosiy, didaktik,

peyzaj, narsa-buyumlar ta’rifi, biror voqea yoki shaxslarga tavsif va hokazolar talqin qilinishi mumkinligi, lekin yetakchi mavzu ishq-muhabbat ekanligi uqtirib o’tiladi;

f) g’azal asosan ishqiy mavzuda yozilganligi bois bosh obrazlar: oshiq, ma’shuqa, raqib to’g’risida ma’lumot berishi aytib o’tiladi.

6–7-sinflarda g’azal vazni – aruz to’g’risida tushuncha berilmaydi. Mumtoz she’rlar shu she’riy tizimda yozilganligini qayd etib o’tish kifoya.

G’azalning to’laqonli o’quv tahlili 8- va 9-sinflarda o’tkaziladi. Tahlil quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Avvalo, g’azal o’qituvchi tomonidan maromiga yetkazib (imkon qadar yoddan) o’qib eshittiriladi. Shuningdek, she’rni yaxshi o’qiy oladigan o’quvchilardan biriga yod oldirib o’qitilsa ham bo’ladi. O’qishda, albatta, aruz vazni qoidalariga rioya qilgan holda she’rda ifodalangan mazmunga muvofiq ohang ham tanlanishi kerak. O’qish texnikasiga ko’ra birinchi misra oxirida ohang ko’tariladi, ikkinchi misra avvalida shu ohang ushlab turiladi va asta-sekin pasayib, bayt oxiri tugallanish ohangi bilan yakunlanadi.

2. G’azalni tinglagach, birgalikda uning qanday mavzuda yozilganligini aniqlash lozim. O’qituvchi g’azal mavzusini o’zi aytib qo’ymasdan, o’quvchilardan so’rashi maqsadga muvofiq. Ular ishqiy mavzuda yozilgan g’azallarni darrov ilg’ay oladilar. Lekin didaktik, falsafiy, ba’zan peyzaj g’azallar mavzusini belgilashda qiynalib qolishlari mumkin. Shunda muallim she’r mavzusini qanday aniqlash lozimligini uning belgilaridan – bosh qahramon, tasvir obykti yoki kechinmalar bayonidan kelib chiqib, tushuntirmog’i kerak.

3. G’azal qofiyasi aniqlanadi. O’quvchilarning o’zlari qofiyadosh so’zlarni topadilar. Agar g’azalda radif ishtirok etgan bo’lsa, u ham qayd etiladi. Ba’zi o’quvchilar qofiya bilan radifning farqiga bormaydilar. She’r qofiyasi ustida

muntazam ishlash bu kamchilikni bartaraf etishga yordam beradi. O'qituvchi bu jarayonda qofiyadosh so'zlardagi raviyni ham topa olish malakasini shakllantirsa, yana ham yaxshi.

4. G'azalda ishtirok etayotgan asosiy obrazlar aniqlanadi. Ishq-muhabbat mavzusida asosiy uch obraz bor: oshiq, ma'shuqa (yor), raqib. Obrazilarga qarab g'azalning tasvirga ko'ra turi aniqlanadi:

a) unda oshiqning ichki kechinmalari, oshiqona tuyg'ulari ifodalangan bo'ladi (Lutfiyning «xoh inon, xoh inonma», «bu ko'nguldur, bu ko'ngul», Navoiyning «kelmadi», «bo'ldim sanga» radifli g'azallari va boshqalar);

b) agar ma'shuqa (yor) go'zalligi yoki uning xarakter xususiyatlari ifoda etilgan bo'lsa, ma'shuqa vasf qilingan g'azal sanaladi (Lutfiyning «Ayog'ingg'a tushar har lahza gisu», Ogahiyning «aylansun», Furqatning «Surmadin ko'zlar qaro...» g'azallari);

d) aksar hollarda ushbu ikki xususiyat o'zaro aralashgan yoki uyg'unlashgan holda keladi (Navoiyning «qilg'il», «deyin», Boburning «mushkuldur», «topilmas», Ogahiyning «ustina» radifli g'azallari va boshqalar).

O'quvchi ishqiy she'rning turini aniqlab olsa, tahlil xiyla osonlashadi, eng asosiysi, u ongli tarzda olib boriladi. O'quvchiga shuni tushuntirish lozimki, g'azalda oshiq kechinmalari, ma'shuqa vasfi muhabbat mavzusidagi g'azallarning asosiy mazmuni bo'ladi, lekin hech bir g'azalda raqib mavzuni ochuvchi obraz bo'lolmaydi. Hech bir g'azalda raqibning kechinmalari, uning portreti tasvir ob'ekti bo'lgan emas.

Didaktik g'azallarda bosh obraz hayot haqiqatlari, inson hayoti mohiyati to'g'risida fikr yuritayotgan donishmand shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ko'p hollarda bu shoirning o'y-mulohazalari sifatida olinadi (masalan, Avaz O'tarning «Til», Zavqiyning «Jahonda kamsuxan kim bo'ldi», Furqatning «Bormasmiz» g'azallari va boshqalar).

Peyzaj g'azallarda bosh obraz tabiatdir. Unda biror yilning fasli (qish, bahor, kuz, yoz), tabiat hodisasi (yomg'ir, shamol), daraxt, meva kabilar tasvir obyektini sifatida olinadi va lirik qahramon kechinmalari ifodasi uchun vosita bo'lib xizmat qiladi (Ogahiyning «navro'z», «qish» radifli, Furqatning «Fasli navbahor o'ldi...» g'azallari). Ko'p hollarda o'quvchilar e'tiborini tabiat timsoli ishqiylar kechinmalar izhori yoki jamiyat voqeliklari talqini bilan uyg'unlashib ketishiga qaratish kerak.

5. Asosiy obrazlar aniqlab olingach, har bir bosh obraz atrofida guruhlangan poetik obrazlarni ajratib olish kerak. Poetik obrazlar bosh obrazning qay jihati, xarakter xususiyatining qaysi qirrasini yoritilayotganini aniq, ravshan his etish, anglash va shoir mahoratini idrok qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, 8-sinf darsligidagi «ne bo'lursan» radifli g'azali maqta'siga diqqat qilaylik:

*Ey odamiylar joni, parig'a ne bo'lursan?*

*Bu jism ila gulbargi tarig'a ne bo'lursan?*

Birinchi misrada yorga qarata «ey odamiylar (oshiqlar) joni» deb murojaat qilinmoqda. Ma'lumki, jon – insonning ruhi, nafsi<sup>2</sup>. Ruh ko'zga ko'rinmas latif bir substansiyadir. Bu yerda «odamiylar joni» birikmasi ikki maqsadga ko'ra qo'llangan: avvalo, yorning odamlar jonidan joy olgani, ko'nglidan urgani, ikkinchidan, jon (ruh) kabi o'zi maftun etgan odamlar (oshiqlar) ko'ziga ko'rinmasligi. Ana shu tasvir mohiyatiga mos ravishda misra davomida pari poetik obrazi qo'llangan. Parilar Yaratganning g'ayb olami maxluqlari bo'lib, ular odamlar ko'ziga ko'rinmaydigan jinlar jinsidandirlar. Goh-goh ko'zga ko'rinsalar ham g'oyat go'zal, aqlni lol qilajak darajada sohibjamol qiyofada namoyon bo'ladilar. Demak, ma'shuqaning kamdan-kam ko'rinish berishi, qachondir yuz ko'rsatib, oshiqlar jonini olgach, benishon ketganligini ifodalash uchun pari poetik obrazi bu o'rinda shoirga qo'l kelgan. Ishqiylar g'azallarda Yaqub poetik obrazi Yusufdek beqiyos husn sohibi bo'lmish yordan ayriliqdagi xilvatninishin

oshiqning ruhiy to'lg'onishlari, cheksiz qiynoqlari ifodasi uchun, Farhod poetik obrazi vasl uchun doimo intilishda, harakatda bo'lgan, ma'shuqa lutfiga qat'iy ishongan, ishq yo'lida har qanday to'siqlarni bartaraf etishga o'zida kuch topa oladigan shaxs qiyofasini gavdalantirish uchun, parvona esa muhabbat o'tida kuyishini, yonib kul bo'lishini bila turib, unga o'zini uradigan sadoqat ramzini talqin etish maqsadida bosh obraz siymosini to'ldiruvchi vosita sifatida keltiriladi va hokazo. O'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida g'azaldagi har bir poetik obrazning qanday badiiy vazifa bilan xoslanganiligi aniqlab olishi va tahlil davomida o'quvchilarni ana shu vazifani anglashlari tomon yo'naltirmog'i g'oyat muhim didaktik yumushlardan biri sanaladi.

6. Voqelikni majoz va haqiqat yo'li bilan tasvirlashga ko'ra o'rganilayotgan g'azalning qaysi guruhga mansubligi belgilab olinadi. Dasturdagi 6-, 7-sinflar uchun tavsiya etilgan g'azallar (Avazning «Til», Turdining «Tor ko'ngullik beklar») asosan majoz va haqiqatdan, ya'ni ma'no qatlamlilikdan xoli, ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi she'rlardir.

8-sinfda berilgan g'azallarga yondashuvda ehtiyotkorlik kerak. Lutfiy she'rlarida ma'no qatlamlilik xususiyati mavjud. Darslikda va metodik qo'llanmada g'azallarining faqat zohiriy ma'nosigina talqin etilgan, botiniy ma'nosi to'g'risida so'z yuritilmagan. O'qituvchi o'z imkoniyatidan kelib chiqib, agar g'azallarining botinidagi mohiyatni ochib bera olsa, tahlilda bunga qo'l urishi kerak, yo'qsa, kitoblardagi sharh bilan kifoyalanishi mumkin. Lekin ular ham juda qisqa, mavhum bo'lib, qo'shimcha izoh, tahlilni talab qiladi. Navoiyning shu sinfda berilgan g'azallari ham birinchi guruhga mansub, ya'ni majoz orqali haqiqat talqin etilgan bitiklardir. Tahlilda buni hisobga olish kerak. Shuningdek, darslik, qo'llanmada ham bu jihat e'tiborga olingan. Afsuski, darslik mualliflari g'azallardagi ayrim baytlarnigina zohiriy va botiniy jihatdan

sharhlaganlar. Bu esa o'quvchi va o'qituvchilarda bir g'azaldagi ayrim baytlardagina ma'no qatlamlilik bo'lar ekan degan noto'g'ri tasavvur shakllanishiga sabab bo'ladi. Aslida bir g'azalni boshdan oyoq zohirga ko'ra tahlil qilib, keyin yana boshdan ikkinchi – botinga ko'ra matla'dan maqta'gacha sharhlanishi kerak. Mashrabning «o'rtar» radifli g'azalini ham shu guruh she'rlari tarzida o'rganilishi lozim. Uvaysiyning «Mehnat-u alamlarga muftalo Uvaysiyman» (7-sinf), Mashrabning «Ishq vodiysidan bir kecha men hayhaylab o'ttim», «Ajab Majnun erurman, dasht ila sahrog'a sig'mamdur» (9-sinf) g'azallari faqat haqiqiy ishq kuylangan she'rlar sirasiga kiradi. Ularning sharhi shu sinf darsliklariga yozilgan metodik qo'llanmalarda berilgan.

7. Shundan so'ng har bir bayt alohida olinib o'qiladi, mazmuni sharhlanadi. Sharhda avval bayt mazmuni aniqlanadi. So'ng fikrning qanday ifoda etilayotganligi, bu boradagi shoir mahorati nimada ko'ringaniga diqqat qaratiladi. O'quvchilar oddiygina fikr shoir tomonidan qay tarzda va qanday darajada shoirona berilganligini anglab his etishlari va bundan zavqlanishlari darkor. Shundagina ko'zlangan maqsad amalga oshgan bo'ladi. Buni Ogahiyning 9-sinf darsligida berilgan «ustina» radifli g'azalining dastlabki baytlari misolida ko'rib o'tamiz.

*Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,*

*Qatlim uchun «nas» kelturur «nun» eltibon «sod» ustina.*

Shoir fikrini uqish, ya'ni baytdan ma'no chiqarish quyidagi tartibda olib boriladi:

a) *tushunilishi qiyin so'zlar ma'nosi aniqlab olinadi:* mushkin, so'z o'zagidan ko'rinib turganidek, mushk kabi deganidir; hay'at – ko'rinish; chashm – ko'z; nas – hukm; nun va sod – arab alifbosi harflari;

b) *baytning grammatik xususiyatlari ustida ishlanadi.* Adabiyotlarda radif bo'lib kelgan «ustina» so'zidagi – **na**

qo'shimchasi tilimiz tarixida jo'nalish kelishigining arxaik shakli bo'lganligi qayd etilgan<sup>3</sup>. Lekin baytda bu qo'shimcha ikki kelishikni ifodalaydi. Birinchi misrada u o'rin-payt kelishigi (-da qo'shimchasi) ma'nosida: *qora qoshini ko'rinishi jallod ko'z ustida(dir)*. Ikkinchi misrada esa jo'nalish kelishigini ifodalagan: «*nun*»ni «*sod*» *ustiga eltib*. Birinchi misrada **jallod** so'zi belgisiz qaratqich kelishigida: *chashmi jallodning ustida*. Ikkinchi misrada «*nas*» va «*nun*» so'zlarida tushum kelishigi, «*sod*» so'zida qaratqich kelishigi belgisiz qo'llangan: «*nun*»ni «*sod*»ning *ustina eltib*, «*nas*»ni *keltiradi*. Ayrim g'azallarda belgisiz qo'llangan qo'shimchalarni to'g'ri idrok etmaslik tufayli o'quvchilar baytlardan ma'no chiqarolmay qolishlari amaliyotda ko'p kuzatilgan;

d) *baytdagi sintaktik o'ziga xoslik ham ko'rib chiqiladi*. Birinchi misradagi radif «ustida» kesim, u ot so'z turkumiga oid bo'lib, kesimlik ko'rsatkichi **-dir** bog'lamasini qo'yib olish mumkin: *ul chashmi jallod ustidadir*. Ikkinchi misrada bu so'z ko'makchi vazifasini bajarib, oldingi so'z bilan birgalikda o'rin holi bo'lib keladi: (qayerga?) «*sod*» *ustiga*. Baytdan ma'no uqishda birikma va gaplarni inversiyadan chiqarib, odatdagi gap bo'laklari holiga keltirib olish g'oyat ahamiyatli ishdir. Birinchi misrada inversiya izofa shaklida uchraydi. Izofani o'zbekcha tartibga keltirib olish uchun aniqlovchi va aniqlanmish o'rni almashtiriladi: *chashmi jallod – jallod ko'z*. Ikkinchi misrada esa inversiya gap bo'laklari tartibida ekanligi ko'rinib turibdi. O'quvchilarga savollar berib, o'zbek tilida gap bo'laklari qay tartibda bo'lishi eslatib olinadi: ega oldin, kesim gapning oxirida, hol va to'ldiruvchi (o'z aniqlovchilari bilan) asosan kesimdan oldin joylashadi, aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Avval kesim topib olinadi: nima qiladi? – *keltirur*.

Ikkinchi misradagi jumla bir bosh bo'lakli gap – ega yo'q. Shuning uchun kesimdan savol bera borib, ikkinchi darajali



bo'laklar topiladi va kesimdan boshlab, birin-ketin topilgan bo'laklar oldiga qo'yib boriladi: nima keltiradi? Nas(ni) – to'ldiruvchi, uni kesim oldiga qo'yamiz: *Nasni keltiradi*. Nima uchun keltiradi? Qatlim uchun – maqsad holi, to'ldiruvchi oldiga joylashtiramiz: *Qatlim uchun nas(ni) keltiradi*. Qanday qilib keltiradi? Nun(ni) sod ustiga eltib – vaziyat holi. Bu bo'lakni ham o'z joyiga qo'yib, odatdagi tartibga keltirib olingan yaxlit gap hosil qilinadi: *Nun(ni) sod ustiga eltib qatlim uchun nas(ni) keltiradi*. O'qituvchi bu jarayonni jonli ko'rsatish uchun darstaxtaga yozib borishi kerak bo'ladi;

e) *baytning badiiyatini, shoirning mahoratini tahlil etish*. Birinchi misrada ikkita tashbihli sifatlash bor: mushkin qosh, jallod ko'z. Qoshning mushkka nisbati ikki jihatda ko'rinadir: uning qora rangdaligi hamda xushbo'yligi. O'quvchilar e'tibori shoir bir sifatlashga ikki xususiyatni mahorat bilan jo eta bilganiga tortiladi. Ma'shuqa ko'zining jallodligi orqali uning kishi ko'ngli hurligi, ozodligini o'ldirishi, ya'ni o'ziga tobe – oshiq qiladigan darajada fusunkorligini ifodalash maqsad qilib qo'yilgan. Ikkinchi misrada **harfiy san'at** bor. Bu san'at vositasida shoir ikki vazifani san'atkorona uddalagan.

Birinchisi shuki, jallod ko'zning oshiq qatliga hukm – «nas» qanday chiqarilishi ko'rsatiladi: «nun» harfi «sod»ning oldiga yozilsa, (ustiga qo'yilsa), «nas» (hukm) so'zi kelib chiqadi; ikkinchisi, «nun» harfi «sod»ning ustiga to'ntarilgan holda qo'yilsa va uning nuqtasini shu harf («sod») ichiga joylashtirilsa, qosh va ko'z surati o'z-o'zidan chizilib qolganligiga guvoh bo'linadi. O'qituvchi, albatta, bularni dars taxtasiga yozib ko'rsatishi kerak. Agar o'qituvchi bu hodisani mahorat bilan tushuntirsa, so'z vositasida yaratilgan bu san'at durdonasi, mahorat bilan chizilgan so'z surati qarshisida o'quvchilarining hayrat va hayajoniga guvoh bo'ladi;

f) *baytda qanday fikr bildirilganligi va uning qanday ifodalangani solishtiriladi*. Oddiy ifodalaganda o'quvchilar

diqqati: «Yor qora qoshlari chiroyli ko'zlari ustida joylashgan, ular meni o'ziga oshiq qildi» qo'shmisrasidagi fikrni Ogahiy qanday ifoda etganiga qaratiladi:

*Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,  
Qatlim uchun «nas» kelturur «nun» eltibon «sod» ustina.*

Bu chog'ishtiruv orqali o'quvchilarning shoirona ifoda, badiiy mahorat borasidagi tushunchalari mustahkamlanadi, she'rni tushunish, undan zavq ola bilish ko'nikmalari oshadi.

G'azalning ikkinchi misrasi ham yuqoridagi tartibda tahlil qilinadi:

*Qilg'il tamosho qomati zebosi birla orazin,  
Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina.*

Ikkala baytdagi (umuman bir g'azal tarkibidagi baytlar tahlilidagi) farq shuki, qo'shmisralarning leksik, grammatik, sintaktik xususiyatlari ustida ishlab, undan ma'no chiqarish bosqichiga kelganda, misralar qo'shma gapning qaysi turiga mansubligidan kelib chiqib o'rnashtiriladi. Birinchi bayt bog'langan qo'shma gap bo'lganligi bois undan ma'no chiqarishda misralarning o'рни o'zgarmaydi, o'z o'rnida qoladi: *Mushk kabi qora va xushbo'y qoshlarining ko'rinishi maftunkor (jallod) ko'zlari ustida, «nun»ni «sod» ustiga eltib, (ular mening) qatlim uchun hukm chiqaradi.* Ikkinchi misra sabab ergashgan gap ekanligi e'tiborga olinadi va baytdan ma'no chiqarishda o'zbek tili sintaktik qurilishiga ko'ra avval sabab ergash gap (ikkinchi misra), keyin bosh gap (birinchi misra) joylashtiriladi: *Agar shamshod daraxti ustiga gulning payvand bo'lganini ko'rmagan bo'lsang, (yorimning) zebo qomati bilan orazini (yuzini) tamosho qilgin.* Shu tariqa o'quvchilarda baytdan ma'no chiqarish uchun misralarni to'g'ri joylashtira olish ko'nikmalari shakllantiriladi.

8. Baytlarni tahlillash asnosida yoki g'azalni to'liq tahlil qilib bo'lgach, ularda qo'llangan badiiy san'atlar ham

sharhlanadi. Faqat shunga diqqat qaratish lozimki, she'riy san'atlarni shunchaki fakt sifatida qayd etib qo'yish noto'g'ri yondashuvdir. Qo'llangan har bir badiiy tasvir vositasi she'r badiiyatiga nima beryapti, muallif fikrini ifodalashdagi ahamiyati nimadan iborat bo'lmoqda kabi savollarga javob topish talab qilinishi lozim.

9. Agar o'qituvchi bungacha aruz vazni to'g'risida o'quvchilarga tushuncha bergan bo'lsa, bu g'azal vaznini topishni topshiriq qilib berishi mumkin. Agar o'quvchilar vazni aniqlashda qiynalishsa, o'qituvchining o'zi yordam berishi kerak. Qiyin va murakkab vaznda yozilgan g'azallarni o'qituvchi faqat qaysi o'lchovda yozilganligini qayd etib qo'yish bilan cheklanishi mumkin.

10. Tahlil tugagach, o'qituvchi o'quvchilaridan g'azaldan olgan taassurotlarini aniqlaydi.

11. Vaqt bo'lsa, bir necha o'quvchiga g'azalni ifodali o'qitib ko'rish kerak. O'qishda ularning vazn talablariga qanchalik rioya qilayotganliklari muhim. G'azal tinglangach, o'qituvchi o'quvchining o'qishdagi yutuq va kamchiliklarini ko'rsatib berishi shart, toki boshqalarga ibrat bo'lsin.

Xullas, o'qituvchi g'azallarni yuqorida qayd etilgan tartibda o'qitib, tahlil qilib bersa, o'quvchilarda g'azal o'qishga, undagi botiniy ma'nolarni anglashga qiziqish yuzaga kelishiga shubha yo'q.

**Valijon QODIROV,  
filologiya fanlari nomzodi.**

<sup>1</sup> Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov. Adabiyot. 7-sinf darsligi. T.: Sharq, 2005.

<sup>2</sup> Абу Хомид Ғаззолий. Кимёи саодат. Т.: Адолат, 2005. 31-б.

<sup>3</sup> А.Мухторов, У.Санакулов. Ўзбек адабий тили тарихи. Т.: Ўқитувчи, 1995. 85-б.



### **7-sinfda zidlov bog'lovchilarini o'rganish**

Ushbu darsning ta'limiy maqsadi o'quvchilarga zidlov bog'lovchilari haqida ma'lumot berish bilan birga ularni nutqda to'g'ri qo'llashga o'rgatishdir.

Darsda mazkur bog'lovchilarga oid jadval, kompyuter va kodoskopdan foydalangan holda savol-javob, suhbat, bahs-munozara usullarini qo'lladim.

Dars boshlanishidan avval sinfdagi partalarni uchta yarim doira shaklida joylashtirdim va o'quvchilarni uch guruhga bo'lib o'tkazdim.

Darsni adabiyot olamidagi, sport va siyosiy hayotdagi so'nggi yangiliklar haqida 2–3 o'quvchining axborot berishidan boshladim. Sinfdagi boshqa o'quvchilar javob berayotgan o'quvchilarning nutqini tinglab, ular nutqida qo'llangan bog'lovchilarni daftarlariga yozib bordilar. Bir o'quvchi esa bu bog'lovchilarni xattaxtaga yozib turdi.

O'quvchilardan xattaxtaga yozilgan bog'lovchilar ichidan o'tgan darslarda o'rganilgan teng bog'lovchilar, birlashtiruv bog'lovchilari, ayiruv bog'lovchilarini ajratib ko'rsatib berishlarini va uy vazifasini so'radim. Shundan so'ng xattaxtaga yangi mavzuni – «Zidlov bog'lovchilari» deb yozib qo'ydim.

Ikki o'quvchiga quyidagi she'rni ifodali o'qitdim:

**1-o'quvchi:** ***Ammo, lekin va biroq,**  
Vazifamiz bir, o'rtoq.  
Zid ma'noli gaplarni  
Fikrimiz yo'q ayirmoq.*

**2-o'quvchi:** ***Ba'zan balki so'zi ham**  
Bizga yordam beradi.*

«Arazlashgan» gaplarni  
«Yarashtirib» qo'yadi.

She'r o'qilgach, o'quvchilardan unda nima haqida gap borayotganligini so'radim. Ular she'rda bog'lovchilar haqida so'z yuritilganini aytdilar va **ammo, lekin, biroq, balki** bog'lovchilarini sanab berdilar. Men ularni xattaxtaga yozib qo'ydim va o'quvchilar diqqatini ekranda bog'lovchilari tushirib qoldirib yozilgan quyidagi gaplarga qaratdim. Nuqtalar o'rniga zarur bog'lovchi qo'yishlarini topshiriq qilib berdim.

1. *Do'st ming bo'lsa ham – oz,  
... dushman bir bo'lsa ham ko'p.*
2. *Do'sting uzoqda-yu,  
... ko'ngli yaqin.*
3. *Do'stga dushman bo'lish oson,  
... dushmanga do'st bo'lish qiyin.*

O'quvchilarga avval gaplarni o'qitdim, so'ngra ulardan nuqtalar o'rniga qaysi bog'lovchilarni qo'yganliklari va nima uchun ayni shu bog'lovchilarni tanlaganliklari sababini so'radim.

Ular bu gaplardagi nuqtalar o'rniga *ammo, lekin, biroq* bog'lovchilarini qo'yganliklari, chunki gaplar zid ma'noga ega ekanligini aytdilar.

Bundan tashqari, o'quvchilar diqqatini bu bog'lovchilar oldiga vergul qo'yilganiga qaratib, biriktiruvchi bog'lovchilarda esa qo'yilmasligini eslatdim. Shuningdek, biriktiruv bog'lovchilarini qo'yganda zidlik ma'nosi yo'qolganini ko'rsatdim.

Shundan so'ng o'quvchilarga darslikning 77-betidagi zidlov bog'lovchilari haqidagi grammatik material bilan tanishib chiqishni topshirdim.<sup>1</sup>

Yangi mavzuni o'zlashtirish maqsadida guruhlar bilan quyidagicha ish olib bordim.

1-guruhga 62-darsning 1-topshirig'ini berdim. Ular berilgan gapdagi nuqtalar o'rniga zidlov bog'lovchilarini o'zaro almashtirib qo'llab ko'rishlari kerak edi. O'quvchilar bu topshiriqni bajardilar va quyidagicha xulosa chiqardilar: «Zidlov bog'lovchilarini almashtirib qo'llaganda gapning ma'nosida o'zgarish bo'lmas ekan».

2-guruhga «**Ammo, lekin** mana bu ishni boplabsan» gapidagi bog'lovchilarning qo'llanishini izohlashni so'radim. O'quvchilar bog'lovchi qo'shaloq qo'llanganda ulardan biri ma'noni kuchaytirish uchun xizmat qilishi haqida xulosa qildilar.

3-guruhga **Ammo, lekin, biroq** bog'lovchilari qanday ma'noli so'z va gaplarni bog'lab kelishini aytish (darslikdagi 2-topshiriq) va misol keltirishni yukladim. O'quvchilar **ammo, lekin, biroq** bog'lovchilari zid ma'noli uyushiq bo'laklar yoki gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qilganligini aytdilar va «Darvoza oldidagi gullar g'unchaladi, **ammo** hali ochilmadi. Kuz keldi, **lekin** daraxtlarning barglari hali sarg'ayganicha yo'q. Do'stimni ko'rdim, **biroq** hech narsa deyolmadim» kabi jumalarni misol tariqasida keltirdilar.

**Balki** so'zi bog'lovchi vazifasida ham kelishi haqida ma'lumot berish maqsadida o'quvchilar diqqatini ekrandagi gaplarga qaratdim:

1. **Balki** ertalab o'ziga kelib qolar.
2. Inson go'zalligi bilan emas, **balki** mehnati bilan kamol topadi.
3. Sobir nafaqat o'qishda, **balki** sportda ham eng faol o'quvchi.

Guruhlardan **balki** so'zi ushbu gaplarda qanday vazifa bajarganligini so'radim.

Ular birinchi gapda modal so'z vazifasini, 2–3-gapda zidlov bog'lovchisi vazifasini bajarganligini aytdilar. O'quv-

chilarning javoblarini bunday xulosaladim: Demak, balki so'zi zidlov bog'lovchisi vazifasida ham keladi.

So'ngra guruhlariga berilgan gaplarni zidlov bog'lovchilarini qo'llagan holda davom ettirish topshirig'i berilgan kartochkalar tarqatdim.

**1-guruhga:**

1. *Har narsaning yangisi yaxshi, ... .*
2. *Do'stning ko'p bo'lgani yaxshi, ... .*

**2-guruhga:**

1. *Qidirgan narsani topish mumkindir, ... .*
2. *Yomon ulfat temirchiga o'xshaydi, uning olovi sizni kuydirmasa-da, ... .*

**3-guruhga:**

1. *Yaxshi do'st suhbatini fazilatni oshiradi, ... .*
2. *Aql sohibi bo'lgan do'st araz tufayli o'z do'stini tashlab ketmaydi, balki... .*

Guruh a'zolarining har biri kartochkada yozilgan gaplarni davom ettirib, kartochkaga yozib qo'ydi. Ikki daqiqadan so'ng kartochkalarni yig'ib oldim va guruhlararo musobaqada kartochkaga eng ko'p to'g'ri misol yozgan guruh a'zolarini g'olib deb e'lon qildim.

Uyga vazifa qilib 204-mashqni topshirdim. Mashq shartiga ko'ra bog'lovchilar ishtirokida gaplar tuzib foydalanilgan bog'lovchilarning turini aytish lozim.

**Matluba SADRIDDINOVA,  
Namangan viloyati Chust tumanidagi  
7-ixtisoslashgan maktab-internat o'qituvchisi.**

---

<sup>1</sup> N.Mahmudov va boshq. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. T.: Ma'naviyat, 2009.



## **6-sinfda «Xalq qo'shiqlari» mavzusini o'rganish**

Dastur bo'yicha oltinchi sinfda xalq qo'shiqlari mavzusiga bir soat vaqt ajratilgan. Bu vaqt o'quvchilarga xalq qo'shiqlari haqida keng tushuncha berish uchun kamlik qiladi. Shu bois vaqtdan samarali foydalanib, o'quvchilarga mavzu yuzasidan ko'proq ma'lumot berish uchun darsning *ta'limiy va tarbiyaviy maqsadini* bunday belgiladim: xalq qo'shiqlari, ularning turlari, mavzulari, yaratilish tarixi, inson ruhiyatiga ta'siri yuzasidan ma'lumot berish; qo'shiq mazmunini anglash, ohangini his etish, xalqimiz o'tmishi, hayot tarzi, tafakkuri, ruhiyatidagi tuyg'ularni ilg'ash, ma'naviy merosimizni qadrlashga o'rgatish.

Dars jarayonida «Muammoli ta'lim», «Aqliy hujum», «Klaster» usullarini qo'llagan holda ilmiy ma'lumotlar, xalq qo'shiqlari san'ati haqidagi bukletlar, «Navro'z bayrami» video lavhalari, «Oltin meros» qo'shiqlar DVD-audio tasmaidan foydalandim.

Mavzu ustida ishlashni xalq qo'shiqlari haqidagi quyidagi ma'lumotlarni berishdan boshladim:

«Har bir millat o'z qadriyatlarini, an'analarini, milliy urf-odatlarini, marosimlarini ham bilmas ekan, o'zligini anglay olmaydi. Xalq qo'shiqlari esa ma'naviy xazinamizdan joy olgan merosdir. U yaratilishiga ko'ra juda qadimiy tarixga ega. Qo'shiqlar dastlab mehnat jarayonida paydo bo'lgan. Keyinchalik ularning mavzui kengayib borgan».

So'ngra o'quvchilarni xalqimiz orasida keng ommalashgan «Daryo toshqin...» qo'shig'ini tinglashga taklif etdim. Bu qo'shiqni ijro etishni sinfdagi qobiliyatli o'quvchilardan biriga oldindan o'rgatdim. U qo'shiqni musiqa jo'rligida jonli ijro etdi.

*Daryo toshqin, suvlar to'lqin  
O'tolmayman, yor-yor.*

*Otim oriq, rangim sariq  
Yetolmayman yor-yor.*

*Otginamni oriq qilgan  
Shu mayda tosh, yor-yor,  
Rangginamni sariq qilgan  
Shu qalam qosh, yor-yor.*

Qo'shiq tugagach, o'quvchilarning tuyg'ulari sovimay turib, ulardan hissiyotlarini so'z bilan ifodalashlarini so'radim. Ular quyidagi fikrlarni aytdilar:

– Mumtoz qo'shiq deyarli tinglamas edim, jonli ijro bo'lganidanmi, qalbmida qandaydir hislar paydo bo'ldi.

– Xayolga cho'mdim, qo'shiqdagi qahramonning ruhiy holatini his etgandek bo'ldim.

– Qo'shiq sho'x ohangda aytilgani uchunmi, zavqlanib tingladim.

O'quvchilarning qo'shiqdan olgan taassurotlarini tinglagach, ularning bu boradagi fikrlarini bunday umumlashtirdim:

– Ha, qo'shiqning o'ziga xos xususiyati ham uning inson ruhiyatiga ta'sir etishidadir, ya'ni hissiy ta'sirchanlikka egaligidadir.

O'quvchilarning xalq qo'shiqlari haqida nimalar bilishini, ya'ni bu boradagi bilimlarini aniqlash maqsadida qo'shiqning turlari, ijro usullari haqida so'radim. Chunki o'quvchilarning biladiganini takrorlash zerikarlidir.

O'quvchilar mumtoz, zamonaviy lirik, shuningdek, estrada va rep yo'nalishidagi qo'shiqlar mavjudligini, ular yakka xonanda va xor ijrochilari tomonidan kuylanishini aytdilar.

O'quvchilarga yana savol bilan murojaat etdim:

– Siz bugungi kunda qanday qo'shiqlarni sevib tinglaysiz va nima sababdan?

Ularning javobi quyidagicha bo'ldi:

– Zamonaviy estrada va rep yoʻnalishidagi qoʻshiqlarni yoqtiramiz. Chunki ular shoʻx.

Shundan soʻng oʻquvchilar diqqatini Gʻ.Gʻulomning «Shum bola» asari asosida yaratilgan filmdan Shum bola ijrosidagi «Daryo toshqin...» qoʻshigʻini tinglashga va qahramonning holatini ham kuzatishga qaratdim.

Lavhani diqqat bilan kuzatgan oʻquvchilar quyidagicha fikr bildirdilar:

– Sinf-doshimiz xuddi oʻsha qoʻshiqni shoʻx ohangda kuylagan edi. Shum bola esa qismatidan norozi. U qoʻshiqni gʻamgin, iztirobli, yaʼni mungli aytmoqda. Atrofdagi goʻzal tabiat uni qiziq-tirmaydi. Qoravoydagi tushkin holat bizni ham taʼsirlantirdi. Bola oʻz kechinmalarini, koʻnglidagi dardini xirgoyi qilayotgan qoʻshigʻi orqali bergan. Bu hol bizning ham hissiyotlarimizni junbushga keltirdi.

Oʻquvchilarning fikrlariga qoʻshimcha qildim:

– Filmdagi Shum bola qismati oʻtmishda koʻpchilik bolalarimiz qismati edi. Xalq yaratgan bu qoʻshiqda koʻpchilikning his-tuygʻulari umumlashtirilgan holda yakka shaxs kechinmalari orqali berilgan.

Soʻngra ekrandagi qoʻshiq turlariga oʻquvchilar eʼtiborini tortdim. Bular:

Ov qoʻshiqlari, mehnat qoʻshiqlari, mavsum qoʻshiqlari, lirik qoʻshiqlar, toʻy qoʻshiqlari, aza qoʻshiqlari; bolalar uchun: alla, ovunchoq, oʻyin qoʻshiqlari.

Magnitofon orqali xalq qoʻshiqlaridan namunalarni eshit-tirib, oʻquvchilarga ularning turlarini aniqlatdim. Masalan:


1. *Oʻrogʻim olmos,  
Oʻrimdan qolmas.  
Sira ham tolmas,  
Oʻrmasam boʻlmas.*

2. *Qat-qatgina qatlama  
Qatlanadi yor-yor,  
Qizni olib yangalari  
Oatlanadi, yor-yor,*

3. *Kichkinasan, lolasan,  
Alla, bolam, alla.  
Qachon katta bo'lasan,  
Alla, bolam, alla.*
4. *Borolmayman uyingizga,  
Chiqolmayman to'ringizga.  
Chiqqanimda to'ringizga  
Kirolmayman go'ringizga.*
5. *Sayra, bulbulim, sayra,  
Qizil gul shoxi sinsin.  
Yor ayrilaman deydi  
Ayrilib ko'ngli tinsin.*

Xalq qo'shiqlarida nimalar aks etganligi haqida ma'lumot berish uchun o'quvchilarning e'tiborini 1-jadvalga tortdim.

### 1-jadval



Shundan so'ng ekranda yurtimizda har yili keng nishonlanadigan Navro'z bayramidan lavhalar namoyish etish orqali xalq qo'shiqlari har bir viloyatda o'ziga xos ekanligini aytdim.

Xalq qo'shiqlarini o'rganishning ahamiyatini esa «Klaster» (2-jadval) usulida izohladim:



Darsni quyidagicha yakunladim:

Mamlakatimizda san'atning bir turi bo'lgan milliy qo'shiqlarimiz tarixi, uning bugungi kundagi rivojlanish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki xalq qo'shiqlari o'tmishimizni, uzoq ajdodlarimizning turmush tarzi, dunyoqarashi, orzu-istaklarini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Qo'shiq turli xalqlarni birlashtirishdek qudratli kuchga ham egadir.

Uyga vazifa qilib darslikdagi<sup>1</sup> «Chittigul», «Boshginam og'riydi», «Boychechak» bolalar qo'shiqlarini o'qib, ulardan yoqqanini yod olishni topshirdim.

**Dono USMONOVA,**  
**Respublika musiqa va san'atga ixtisoslashtirilgan**  
**maktab-internat o'qituvchisi.**

<sup>1</sup> S.Ahmedov, R.Qo'chqorov, Sh.Rizayev. Adabiyot. 6-sinf uchun. T.: Ma'naviyat, 2009. 174–177-b.

## Шайх Аҳмад Тарозий таржеъбандлари

Маълумки таржеъбанд арабча сўз бўлиб, унинг луғавий маъноси – «қайтиш, илгариги нарсани такрорлаш» демакдир.<sup>1</sup> Ҳар бири ғазалга тенг бандлардан ташкил топган ва барча бандлар охирида мустақил қофияланувчи бир байт такрорланиб келувчи лирик шеър шакли таржеъбанд деб аталади. Таржеъбанддаги бандларнинг ҳар бири таржеъхона деб аталади, *аа, ба, ва, га...* тарзида қофияланади. Бандлар охирида такрорланиб келувчи барча таржеъхоналарни ўзаро боғлаб турувчи байт «*восита*» дейилади.<sup>2</sup>

Таржеъбанд ишқий, фалсафий-ахлоқий мавзуларда бўлади. Ундаги барча бандларни асосий мавзу бириктириб туради, аниқроғи, ҳар бир банд ушбу мавзунинг бирон муҳим жиҳатини ёритади. Бандлар ўзаро изчил боғланиб, яхлит шеърий асарни юзага келтиради; бандлар охиридаги «*восита*» байти асосий ғояни такрорлаб, таъкидлаб туришга хизмат қилади.

Таржеъбанд ҳажми анча катта бўлган шеърий асарлиги боис унда лирик кечинмалар, турфа ҳис-туйғулар оламини кенг кўламда ифодалаш имконияти мавжуд. Айни чоғда бу хил асарларни яратиш ижодкордан юксак бадий санъаткорликни ҳам талаб этади. Шунинг учун бўлса керак, адабиётимизда ушбу шаклдаги лирик асарлар энг иқтидорли шоирлар ижодидангина ўрин олган.

Шу вақтга қадар таржеъбандларнинг дастлабки намуналари Ҳофиз Хоразмий ижодида учраши қайд этилар эди. Кейинги тадқиқотларда кўрсатилишича, таржеъбанд шаклидаги илк лирик асарлар Шайх Аҳмад Тарозий-

нинг «Фунуну-л-балоға» асаридаги олтинчи адабий нав (бўлим)да келтирилган. Тарозий таржеъбандга қуйидагича изоҳ беради: «Таржеъ ул бўлурким, шеъре айтурлар, банд-банд барчаси бир баҳрда, ҳар банднинг ози беш байт бўлур ва кўпи тўққуз байт ва ҳар бирининг охиринада бир ўзга байтни такрор қилурлар... Ул байтни таржеъ дерлар. Мисоли бу сифат», дея олти байтли таржеъбанднинг бир бандини келтиради. Восита байти:

*Май ичса киши нигор бирла,  
Айш этса мудом ёр бирла<sup>3</sup>.*

Тарозий таржеъбандни қуйидаги беш турга бўлиб кўрсатади:

«Ва таржеъ, беш қисм бўлур. Аввалғи қисм ул бўлурким, ҳар банднинг қофияси ўзга тариқа бўлур. Ва ҳар бандким, тамом бўлса, охиринада бир байтни такрор қилурлар, нечукким мисолин кўргуздик». У Шайх Саъдийнинг ишқий мазмундаги форсча таржеъбандини келтиради. Восита байти:

*Биншинаму сабр пеш гирам.  
Дунболаи кори хеш гирам (47-б.).*

Мазмуни: *Ўтирсаму сабр қилсам,  
Ўз ишимнинг пайида бўлсам.*

«Иккинчи қисм улким, барча бандни бир қофияда айтурлар ва таржеъ байтини такрор қилмаслар. Ҳар банднинг охиринада бир ўзга байт келтурурлар. Ҳар бири алоҳида қофия била».

Биринчи банднинг восита байти:

*Ҳурсен ё малакмусен ё жон?  
Ҳуснунга бўлди инсу жон ҳайрон (48-б.)*

Иккинчи банднинг восита байти:

*Эй лабинг қанд, кўзларинг бодом,  
Кўрса юзунгни, жон топар ором (49-б.).*

«Учинчи қисм улким, барча банди бир қофияда келур».

Биринчи банднинг восита байти:

*Чун эмин бўлурки, шоҳи жаҳон  
Тиғ уруб, дин очар, қилур эҳсон (50-б.).*

Иккинчи банднинг восита байти:

*Хусраво, ногоҳ олса элга синон,  
Элга зарин сипар тутар Кайвон (50-б.).*

«Тўртинчи қисми улким, ҳар банди алоҳида қофия бирга келур ва таржеъ байтлари барча бир қофияда келур, таржеъ байтларини жамъ этса, бир банд бўлур ва таржеъ байтларининг аввалги мисрасида қофия бўлмас, магар аввалги байтта».

Биринчи банднинг восита байти:

*Жону кўнгул ўртади фироқинг,  
Андозадин ошти иштиёқинг (51-б.).*

Иккинчи банднинг восита байти:

*Фурқатта ғубор тутти кўзни,  
Қўй бу кўзум узра бир аёқинг (52-б.).*

Тарозий ниҳоят, таржеъбанднинг бешинчи қисмини қуйидагича шарҳлайди: «Ва бу таржеъ тўққуз банддур. Ҳар банди тўққуз байт. Аммо биз малолат ихтирозидин ихтисорни ихтиёр қилдуқ. Ва мунинг банди муқаррар эрмас. Ихтиёр шоирғадур. Вале уч банддин ўксук яхши келмас.

Ва бешинчи қисми улким, ҳар банднинг қофияси бир тариқа бўлур ва таржеъ байтлари тақи ҳар бири алоҳида қофия била келур ва муқаррар қилмаслар. Ва бу қисмда марсия ва мадҳ айтурлар».

Биринчи ва иккинчи банднинг тегишлича восита байтлари:

*Сарвару марди салотин, меҳтари шоҳи жаҳон,  
Мафхари дунё-вудин султон Улуғбек Кўрагон.*

*Эй шаҳаншоҳиқи, адлингдин қилурлар ифтихор,  
Инсу жину мурғу моҳию вуҳушу мўру мор (53-б.).*

Тарозий ўз асарида келтирган таржеъбандларнинг ҳар бири олти байтдан, фақат Улуғбек мадҳига бағишланган таржеъбанд эса тўққиз байтдан иборатдир.

Юқоридагилардан кўринадики, Шайх Аҳмад Тарозий таржеъбандни қуйидаги беш турга бўлиб кўрсатади:

Биринчи тур – ҳар бир банднинг қофияси турлича бўлади, лекин байт такрори сақланиб қолади.

Иккинчи тур – барча бандлар бир хил қофияда айтилиб, таржеъ байти такрорланмайди, ҳар бир банднинг охирида бошқа байт келади.

Учинчи тур – барча бандлар таржеъ байтлари ҳам бир қофияда бўлади.

Тўртинчи тур – ҳар бир банд алоҳида, таржеъ байтлари ҳам алоҳида қофияланади.

Бешинчи тур – ҳар бир банднинг, шунингдек, таржеъ байтнинг қофияси алоҳида кўринишда бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, шайх Аҳмад Тарозий ўзининг «Фунуну-л-балоға» асарида ўзбек мумтоз адабиётида илк бор таржеъбанд намуналарини келтирибгина қолмай, уларда ишқи ҳақиқийнинг ёритилиши бу жанрнинг тематик йўналишини ҳам белгилашини кўрсатиб беради. Мазкур таржеъбандлар бадий баркамоллиги билан ҳам диққатга сазовордир.

**Дилрабо КАЗАКБАЕВА,  
Ўзбекистон Миллий университети  
аспиранти.**

---

<sup>1</sup> Х.К.Баранов. Арабско-русский словарь. С.364.

<sup>2</sup> Анвар Ҳожиаҳмедов. Мумтоз бадиият луғати. Т., 2008. 130-б.

<sup>3</sup> Шайх Аҳмад Ибн Худайдод Тарозий. Фунуну-л-балоға («Балоғат илмлари») Т.: Хазина, 1996. 46-б. (Кейинги мисоллар ҳам шу манбадан олинган бўлиб, саҳифаси қавс ичида кўрсатилган).

## **Хилватийнинг ахлоқий-таълимий қарашлари**

Мударрис, олим, адиб, шоир, маънавият ва маърифат тарғиботчиси сифатида ўзидан эзгу ном қолдирган мулла Йўлдош Тўрабой ўғли Хилватий 1858 йилда Наманган вилоятининг Уйчи туманидаги Жийдакапа қишлоғида туғилган.

Хилватий шеърляти, асосан, ишқий, диний-тасаввуфий, ахлоқий-таълимий мавзуларда бўлиб, уларнинг ғоявий мазмуни конкрет шеърнинг руҳидан келиб чиқади.

«Ҳаёт», «илм учун», «кўнгил», «этиб кет», «диллим», «этмаган яхши», «керак бўлса» радифли ғазалларида шоирнинг ахлоқий-таълимий қарашлари ёрқин акс этганлигини кўриш мумкин. Масалан:

*Ур ўзинг илм элига учраса мардона, дилим,  
Бу сифатким урадур шаъмга парвона, дилим.*

*Жуҳололарга яқин юрма-ю улфат бўлмағил,  
Назаринг солма дари кулбаи нодона, дилим.<sup>1</sup>*

Бу ғазалда шоир **тамсил** санъатини қўллаб, илм элини *шаъмга*, толиби илмни эса *парвонага* ўхшатади, ёшларни илм ўрганишга, жоҳилликдан фориғ бўлишга чақиради.

*Эй фано, сармоя роҳат қилгудек фурсат қани?  
Кўз очиб юмгунча ҳам чун барқи барҳамдур ҳаёт.*

*Аҳли оламдин ниҳон сурсанг тириклик даврини,  
Хизр умридек муаббад бўлса ҳам камдур ҳаёт.*

*Сихҳати тан бўлмаса, мулки Сикандардин на суд,  
Офиятманди гадога давлати Жамдур ҳаёт.*

*Тобакай таърифи кори хайр, эй ғафлатсиришт,  
Эртага қўйма бу кунни, эрта мубҳамдур ҳаёт.*

(131-б.)

«Хаёт» радифли ғазалда *Давлати Жам, Искандар мулки, Хизр умрига* ишора этган шоир **талмеҳ** санъатидан фойдаланиб, хайрли ишларни бажаришга *Хизр умри* ҳам етмаслигини, соғлиқнинг қадрига етиш лозимлиги, агар соғлиқ бўлмаса, *Искандар мулки* ҳам бефойда эканлигини таъкидлайди. Қўл учида кун кўрса ҳам тириклик гадо учун *Жамшид давлати* кабидир. Шундай экан инсон ўз нафсига эрк бермаслиги зарур, дейди.

*Ҳамиша боғлагил санғи қаноат риштасин белға,  
Ва гарна қилғуси нафси эшикларда гадо кам-кам.*

*Фурури нафс ўлиб, нафсинг муродин истасанг доим,  
Бўлур мунглуғ бошинг узра ажойиб можаро кам-кам.*

*Ишонма давлату жоҳингга, кетгай оз фурсатда,  
Ўтиб байрам тунни, қўлдин кетар ранғи ҳино кам-кам.*  
(92-б.)

Бу ўринда Хилватий **тамсил** санъати орқали давлатни байрам куни қўлга қўйилган хинага ўхшатади. Хина секин-аста қўлдан ўчиб борганидек, бойлик ҳам бора-бора тугаши, шу боис унга ҳирс қўймаслик зарурлиги ҳақида сўз юритади.

*Тавозипеша қилғил моҳи навдек эй баланд ахтар,  
Сипеҳри манзилатда моҳдек рафъат керак бўлса.*  
(56-б.)

«Энг ёрқин юлдуз бўлсанг ҳам, худди ой каби ўзингни камтар тут, чунки одоблилиги туфайли ой осмону фалакдан жой олган. Сен ҳам ойдек бўлай десанг, *тавозеъпеша бўлгин*» деб уқтираётган шоир ҳаётини мисоллар воситасида **ҳусни таълил**, **тамсил** санъатидан моҳирона фойдаланганлигини кўради.

Шоир ҳимматсиз кишиларни танқид қилиб, инсон қашшоқ яшаса ҳам ҳеч қачон ўзини хор қилмаслиги лозим, деб ёзади.

*Чу қасри ҳимматинг пастдур дару девору айвони,  
Баланд дарвозау, айвону, девор этмаган яхши.*

*На ким қисматда бўлди, Хилватий, бўлмас зиёду кам,  
Киши рўзи талаб айлаб, ўзини хор этмаган яхши.*  
(83-б.)

Аждодлар руҳини шод айлаш лозимлиги, азиз авлиёлар руҳи бизни қўллаши ҳақида шоир шундай дейди:

*Сабоҳу шом ўтган яхшилар руҳини шод айла,  
Мадад қилғай санга ўтган азизу авлиё кам-кам.*  
(91-б.)

Шоир ғазалларида ёшларни илм-маърифатга, ҳаётни, ватанни севишга чорлаш, сабр-қаноатли бўлиш мотивлари устун туради.

Шундай экан, Хилватий шеъриятини XIX аср охири XX аср бошлари ўзбек адабиёти ютуқларини ўзида муҷассамлаштирган катта хазина дейиш мумкин.

**Озода БОЛТАБОЕВА,  
НамДУ ўқитувчиси.**

<sup>1</sup> Хилватий. Девон. Т.: Фан, 2001. 79-б. (Кейинги мисоллар шу манбадан олинган бўлиб, саҳифаси қавс ичида кўрсатилган).



## **Хуршид Дўстмуҳаммаднинг «Бозор» романида мулоқот шакллари ифодаси**

Маълумки, бадий асарда монолог ва диалоглардан фойдаланиш тасвир ихчамлиги ҳамда ифода кўпқатламлилигини таъминловчи муҳим воситалардан биридир. Унда таҳлил ва талқин уйғунлиги, муҳокама

ва мунозара устуворлиги, онг ва туйғу нисбати ўз аксини топади. Образли таҳлил билан тўлдирилган моҳият истилоҳ табиатини белгилайди. Муҳими, мулоқот шаклларида ҳаётни идрок этиш воқелик психологиясидан ўсиб чиқади. Динамик ҳаракатдаги аниқловчи унсур асарнинг бадий яхлитлигини таъминлаш баробарида қаҳрамон суврати ва сийратини ҳам тўлиқ очиб беришга хизмат қилади. Буни Хуршид Дўстмуҳаммаднинг «Бозор» романи мисолида кўриш мумкин:

*«Фозилбек маҳмадона дўсти бошлаган мавзуга астойдил қизиқишини намойиш қилиб қўймоқчидек босиқлик билан тилга кирди:*

*– Гуноҳкорлик туйғуси одам туғилган лаҳзадаёқ инсонга илашар экан.*

*– Ҳар кимга ҳам эмас!...*

*– Майли-да! Лекин ҳали туғилиб улгурмаган, тўғрироғи, онасининг қорнида ётган ҳомилалик пайтларидаёқ одамда ўз жонини сақлаш илинжи, эҳтиёжи шаклланиб улгурган экан! Ва жонзот борки, жони чиқиб кетгунга қадар, энг сўнгги сонияга қадар жон қайғусида нафас олади ва жонини сақлаш илинжида ҳар қандай ёвузликдан ҳам, разилликдан ҳам қайтмайди.<sup>1</sup>*

Суҳбат асносида инсон ибтидоси ва интиҳоси ҳақидаги ўйлар тасвир миқёсини кенгайтиради. Фозилбек ва унинг маҳмадона дўсти орасида кечган мулоқот фалсафий сажия касб этади. «Гуноҳкорлик туйғуси», «ўз жонини сақлаш илинжи» – одамзод табиатига хос чизгилар. Тўғрироғи, манфаат ва эҳтиёж гуноҳга етаклайдиган асосий восита. «Ҳар кимга ҳам эмас!» конструкцияси феъл-атвор инсонга боғлиқлигини тавсифлайди. Муаллиф «жон қайғусида» яшаётган одамзод қиёфасини давр руҳиятига туташтиришга муваффақ бўлади. Ўз навбатида, монологик онг ва диалогик ифода

мустақил тасвир усуллари сифатида ёзувчи мақсадини тўлдиришга йўналтирилади. Шу ўринда таъкидлаш жозики, ҳар бир бадиий талқин муайян мулоқот шакли ҳисобланади. Унда феъл-атвор ва идеал оралиғидаги зиддият яхлитлиги кузатилади. Негаки, онг устқурмаси ўзаро алоқа ҳамкорлигидан озикланади:

*«Фозилбекнинг назарида ёнида оппоқ либосга ўралган, ҳар нарсадан хабардор фаришта бораётгандек туюлди. У билан истаган мавзуда суҳбатлашиш мумкин...*

– *Ўзингиз айтган ривоятдаги... бўрилар отларни қувиб этиш фурсати келмадими, ишқилиб?*

*Қадрия жиддий эди.*

– *Ривоят эмас. Дунёнинг барҳам топишидан дарак берувчи белги, ишора у. Бу дунёда белгисиз ҳеч бир нарса йўқ» (178-б.).*

«Бозор» романида тасвир хослиги таъминоти учун хос хусусиятлардан бири оламни идрок этиш миқёслари даражаланишида намоён бўлади. Мустақил ижодий шарҳларнинг (нутқий онг) адабий туркумдаги яхлитлиги (мифопоэтик тасаввур – диний дунёқараш – дунёвий фалсафа) ифода тадрижини ягона эстетик марказга йиғади. Унда жузв ва бутунлик нисбати, мушоҳада ва тарих зиддияти, шакл ва такомил уйғунлиги кузатилади. Маълум бўладики, адиб ғоявий ибтидодаёқ ҳаққонийликка эришиш жараёнида эркин ва рационал таҳлил имкониятларидан унумли фойдаланади. Муаллиф инсон идрокини турли ақидалар ҳамда турғунликдан тозалашга уринаркан, ривоят воситасида тасвир моҳиятида инқилоб ясайди. Жумладан, «Бозор» эпик майдонида, киритма, биринчидан, ақидалараро-тасаввураро мушоҳада барқарорлиги, иккинчидан, ибтидоий-илоҳий-дунёвий фалсафа тадрижи, учинчидан,

инсон маънавий фитратига эришиш истагини мушоҳада узвида бутунлаштиради:

– *Худо берган етти ўғил-қизнинг тўйини тўртта фаслга мўлжаллаб ўтказдим, илло, бирортасида ёмғирдан қочиб қутулолмадим, ҳаммасининг тўйида жала қуйган-е! Мана, валлоҳи аълам, саратон, одам ёнаман, дейди-ю, ёмғири тушмагур тинмайди!...*

*Фозилбек ҳайрат аралаш кулди.*

– *Майли, ўлим бўлмасин, – дейди карвоннинг кўнгли учун. – Ёмғир барака белгиси, ношукурлик бўлмасин. У бир неча қадам нари кетган жойида Камол карвон уни тўхтатди.*

– *Ўлим бўлмай иложи йўқ, ука – деди у уст-бошига қуяётган ёмғирни писанд қилмай (7-б.).*

Роман муқаддимасида келтирилган мулоқот шакли, бир қарашда, муайян эстетик вазифа бажармаса-да, унда роман ғоявий моҳиятига ишора мавжуд. Инсон ҳаёти ибтидосидан умр интиҳосига қадар, бетиним олға интилишдан иборат. Одамзод доимо моддият ва руҳоният такомили учун курашади ҳамда алал оқибат ўлим билан тўқнашади. Яшашнинг моҳияти ҳам шахснинг ўзни «боқий дунё»га тайёрлашига йўналтирилган. Асрлар давомида бани башарни ўзига ром этган мавжудлик жумбоғи, муайян маънода, кишилиқ жамиятининг эҳтиёж ва манфаатларига муқобил хусусият касб этади. Шу боис, бадиий асардаги мунозара материяга дахлдор турдош, жанрлараро вазифадошликни юзага келтиради. Аниқроқ айтганда, китобхонни қаҳрамон моҳияти эмас, балки образда акс этган ҳаётийлик даражаси қизиқтиради:

*«Қадрия жилмайди. Йигитнинг юрагидаги чўғ аланга олиб, гуриллади. Қадрия бунга сизди чоғи, шундоқ ҳам оппоқ чехраси янаям оқариб кетди. Қадамини*

жадаллаштирди. Индамай бораверишдан баттар ўнғайсизланиб, қарийб шивирлади:

– Боя айтганимдай, ташлаб кетишган пул йиғилиб қолганди. Сизнинг ёрдамингиз...

– Мени ҳам инсофийлар қаторига қўшиб қўярсиз...

Қадрия ҳуркиб кетган оҳудек Фозилбекка жовдирди, ён-веридан ўтаётганларга бирров кўз югуртирди-да, гапирди:

– У гапни фақат сизга айтдим...

– «Фақат менга?!» – Фозилбекнинг шундайига ҳам ичига сиғмаётган ҳаяжони азбаройи тошиб кетди. «Демак, фақат менга раво кўрди. Сирни менга очдими, демак!» (69-б.).

Муаллиф суҳбат асносида икки ғоявий чизиқни ба-робар мувозанатда ривожлантиради. Тўғрироғи, қаҳрамонлар қиёфаси фалсафий ва бадиий ғоя муштарақлигини деталлаштиради. Романнын мулоқотлар тизими воситасида бадиий тафаккур янги шамойилига ўтганлигини сездирмайди. Мазкур ҳолат эса дунёни англаш ва англатиш жараёни ўзгача миқёсга кўтарилганлигидан далолат беради. Ўз навбатида, оламни идрок этиш узви фавқулодда бадиий қадриятлар шаклланишига туртки беради. Унда тажриба ва анъана тазоди, замонавийлик ва интеграл нисбати, муаммо ечимининг органик яхлитлиги, рамз ва фалсафий умумлашма давомийлиги етакчи поэтологик конструкцияга айланади.

Нутқий манера асар марказида инсон мураккаб турмуш тарзининг бутун қирраларини умумлаштиришга имконият яратади. Адиб кундалик ҳаёт қадар мавҳумлаштирилган одамзод маънавий борлиғига тавсиф бераркан, унинг маданий сажияси давр, тарих ва тақдирга бўйсунганини ёрқин бўёқларда изоҳлайди. Қаҳрамоннинг ҳатто онг-туйғуси ҳам озод эмас. Объектив

сажия ва субъектив ҳиссиётнинг ўзига хос динамизми замон фалсафий мантиғи, бадий далолатномасининг яхлитлиги, бетакрорлиги ва оригиналлигини таъминлайди.

Романнавис ижтимоий-индивидуал тафаккур миқёсларини кенгайтириш воситасида ахлоқий ва сиёсий дастурни такомиллаштиришга интилади. Интим кечинмалар, инсон ибтидоси ва интиҳоси ҳақида адоқсиз ўйлар, давр фалсафасини эстетик баҳолаш тизгини нутқий онг интизомига бўйсунди. Янги ғоявий ва бадий моҳият мувозанати асарнинг мағзини белгилайди. Мазкур нуқтада мулоқот шаклининг хосланганлик даражаси эпик воқеликнинг мантиқий тараққиётига шароит яратади. Айнан монологик онг, ҳаёт оқими ва бадий талқин ўртасидаги мужассам тўғридан-тўғри алоқа жанрий чеклашларга олиб келса-да, олам ва одам ҳамда ижтимоий муҳит қарама-қаршиликларини атрофлича таҳлил қилишга халақит бермайди.

Ички монологларда бадийлик меъёрлари ифода тарзи ва тасвир шакли барқарорлигини белгилайди. Талқин жозибадорлиги ва таъсирчанлигини таъминлашда нутқий фаолиятнинг диалогик шакли ҳам муҳим роль ўйнайди. Негаки, мазкур истилоҳ кенг бадий алоқаларни ифодалаб, монологларга нисбатан ижодий имконияти чегараланмаганлиги, мантиқ доирасининг ўсувчанлиги билан диққатни ўзига жалб этади. Табиийки, ўзаро мулоқот икки ёқлама характер қирраларини умумлаштириб, яхлит ижодий деталлар қаҳрамон руҳиятини тўлдиради ва персонажлараро мувозанатни тадқиқ саҳнига кўтаради. Қўйилаётган масала ҳамда унинг залвори диалогларнинг кўп қатламли импульсив табиатини далиллайди. Бу далолат монологик талқиндан ўзининг вазифавий хусусиятлари, мантиқий-мазмуний асосланганлиги ҳамда психоаналитик теран-

лиги билан фарқланади. Маълумки, ички монолог қай даражада барқарор шакл ҳисобланса, диалогик муносабатлар ҳам шунчалик ўзгарувчан моҳият касб этади. Негаки, ички нутқда руҳий-таҳлилий яқинлик намоён бўлса, диалогик онгда тасвир ранг-баранглиги ҳамда услубий маъно товланишлари муайян эстетик вазифани амалга оширади:

*«Қосимбек чол истар-истамас суҳбатлашиб турганида Диёрбек қўққисдан инсофийлар ҳақида гап очди.*

*Отаси «ялт» этиб у томон ўгирилди.*

*– Кимлар?! – деб сўради.*

*Қосимбек чолнинг шум одати бор эди: у аллақачон эшитиб, суриштириб, билиб улғурган янгиликни бировдан эшитса, мутлақо беҳабар киши қиёфасида анқовсираб қулоқ солиб турар эди. «Бозор ҳийла усули» деб қўяр эди Фозилбек. «Тарки одат амри маҳол» деганларидек, чол ҳатто ўз фарзандлари билан муомалада ҳам шу ҳийласини қўймас эди.*

*– Ия, эшитмадийзми?! – деди у отасини ҳангу манг қилаётганидан ҳовлиқиб, – ҳамманинг оғзида шу-ку!...*

*Шундай деди-ю, ҳамманинг оғзидаги гап аллақачон бозорбошининг қулоғига етмай қолмагандир, деган тахмин фаросатиға келмади.*

*– Хўш? – деди Қосимбек ўғлини тезлаб. Диёрбек ҳаяжонини босолмади:*

*– Инсофийлар бозорни ўз изнига солармиш!*

*– Ўзимизни қадимги инсофгами?..*

*Диёрбек отасининг дабдурустдан берган саволиға жавоб тополмай дудуқланди, отаси норози оҳангда товушини пича кўтарди:*

*– Ё, осмондан янгича инсоф тушибдими?.. – Диёрбек тили бесуюклик қилиб қўйганини шундагина фаҳмлади. «Бозорда инсоф қолмади» деган иддао*

*«Сизда инсоф қолмади» деган мулоҳазага тенглигини у ўйлаб кўрмаган эди (25–26-б.).*

Юқоридаги мулоқотда ўзбек миллатига хос меҳр-мурувват, диёнат ҳамда оқибат ҳаётий-поэтик чизгиларга сингдирилади. Айниқса, ўзаро муносабатда ойдинлашадиган характер ривожини маънавий баркамолликнинг энг ёрқин намунасидир. Бу эса, ўз навбатида, инсон дунёқарашини таъкидлайдиган, маънавий қиёфасини белгилайдиган етакчи хусусиятга айланади. Шу нуқтаи назардан қараганда, диалогик тафаккур ижтимоий-сиёсий, маънавий-руҳий-ахлоқий ва маданий-маърифий уйғунликни тайин этадиган, эстетик жузвни шакллантирадиган бадиий бутунликни майдонга келтиради.

Умуман, мулоқот шакллари асар руҳий, ижтимоий ҳамда маърифий тўлдирувчиси тарзида эстетик идрокда ҳиссий тусланиш жараёнини кучайтиради, унинг ифода нозиклиги, тасвир қабариклиги ва муҳокама аниқлигига эришишини таъминлайди. Энг аввало, монологик онг – руҳий таҳлил воситаси. Унда бир неча ички тармоқ – эстетик тизим (воқеликка ижодий муносабат), композицион интизом, мавзу доираси (ҳаётий қамров) ва услуб яхлитлиги марказлаштирилади. Бинобарин, бадиий анъана ҳамда ижодий таомиллар муштараклигини жонли адабий ҳаракатда тасвирлаш мулоқот усулларининг бадиий-психологик такомилни белгилаб беради.

**Гулнора АВЕЗОВА,  
Бердақ номидаги Қорақалпоқ  
Давлат университети катта ўқитувчиси.**

<sup>1</sup> Х.Дўстмуҳаммад. Бозор. Т.: Шарқ, 2000. 85-б. (Кейинги мисоллар ҳам шу манбадан олинган бўлиб, саҳифаси қавс ичида кўрсатилган).



## Саидахмад Васлий Самарқандий

Ўзбек, форс-тожик ва араб тилларида эркин ижод қилган маърифатпарвар шоир, мударрис, ислохотчи педагог Саидахмад Уста Азим ўғли – Васлий 1870 йили Самарқанднинг Қўшховуз маҳалласидаги Кўк масжид гузаридида пичоқчи уста Саидазим оиласида туғилди. У етти ёшида отадан етим қолди ва онаси қўлида тарбияланди. Бошланғич маълумотни маҳалла мактабидида Мирзо Абдулҳамиддан олди. Ёш Саидахмад мактабда ўқиб юрган чоғларида ноқ адабиётга меҳр қўйди. 1883 йилда Тошкентда яшовчи тоғаси Абдулқосим уни Тошкентга олиб келиб, «Кўкалдош» мадрасасига ўқишга беради. Саидахмад дастлабки шеърларини ҳам шу ерда ёза бошлади.

Саидахмад Васлий 1892 йилда Самарқандга қайтади ва орадан бир оз вақт ўтиб ўқишни Бухоро мадрасаларида давом эттиради. Ҳожи Муиннинг ёзишича, Бухорода у расмий дарсларни қозикалон Бадриддиндан олган бўлсада, мадрасадаги унинг катта устози машҳур мударрис Мулла Абдураззоқча бўлган. 1902 йилда у мадрасани муваффақиятли «хатми кутуб» қилади ва Бухоро мадрасаларидан бирига расман мударрис этиб тайинланади.

Васлий – Туркистон ўлкасида вужудга кела бошлаган усули жаид мактабларининг дастлабки ташкилотчиси ва тарғиботчиларидан бири бўлган. Бу ҳақда академик шоир Ғафур Ғулом: *«1903 йилдан бошлаб очила бошлаган усули жаид мактабларига биринчи топқир ўқиш китоблари ёзганлардан бири Васлий*

ҳисобланадур. Ҳатто бундай мактаблардан бир, иккинчиге очилишига Васлийнинг ўзи сабаб бўлгандур», – деб ёзган.<sup>1</sup>

Саидахмад вақтли матбуотда босилган мақолаларининг бирида мактабларда ҳукм сураётган тартибсизликларнинг асосий айбдорлари ҳукмрон доиралар ва мутаассиб уламолар эканлигини фош этиб: «Ағниёларимиз бепарво, ҳукмронларимиз бесаъй ва уламоларимиз беривож. Ҳеч ким илм ҳолига боқмас. Ағниёларга танга ва сўм бўлса бўлур:

*Фарёдким, бир макотиби обод қолмади,*

*Мактаблар ичра бир гўзал устод қолмади»<sup>2</sup>,* – деб ёзган.

1907 йилда турк дунёсига «Рашид қози» номи билан танилган, келиб чиқиши ўзбек, Санкт-Петербургда чиқадиган «Улфат» газетасининг муҳаррири, машҳур олим Абдурашид Иброҳимов (1857–1944) Бухорога келади ва шаҳарнинг зиёлилари билан учрашади. Саидахмад Васлий Бухоро мактаб ва мадрасаларининг замон талабларидан анча орқада қолиб кетаётганлиги, давлат идораларида тартиб-интизомнинг йўқлиги ҳақида Рашид қозига маълумот беради. Бу ҳақда Саидахмад Васлийнинг шогирди Ҳожи Муин: «Сайёҳ Абдурашид Иброҳимоф Васлийдан олган маълумотини ўзининг муҳокама ва тадқиқлари билан бирга ўша вақтда Қозонда чиқатурғон «Ахбор» газетасида нашр қилғонида, бу воқеа бутун Бухоро уламоларини ғалаёнга келтирган эди. Шунинг натижасида Бухоро қозикалони Васлийни ўз ҳузурига чақириб олиб, қаттиқ урушғонини эшитган эдик. 1906 йилдан бошлаб Туркистонда чиққан ҳар бир ўзбекча газетада Васлийнинг ислоҳатпарварона шеър ва мақолалари босилгандур»<sup>3</sup>, – деб ёзади.

Шу воқеадан кейин Васлий Бухоро уламолари, амирлик маъмурияти томонидан қаттиқ таъқибга учрайди ва Самарқандга қайтишга мажбур бўлади: дастлаб «Шоҳизинда», сўнгра «Орифжонбой» мадрасаларида дарс беради.

Васлий педагоглар орасида биринчилардан бўлиб, 1904 йилда жадид мактабларининг тожикзабон ўқувчилари учун «Баён ул-хуруф» номли алифбо дарслигини яратади. Бу ҳақда ўзбек ва тожик алифболари тарихини мукаммал билувчи Ҳожи Муин «Форсча алифболар тарихи» мақоласида: *«Бу алифбо («Баён ул-хуруф» – У.Д.) Васлий томонидан 1904 йилда ёзилиб, китобчи Қори Абдурауфнинг харжи билан тошбосмада фақат бир мартаба минг дона босилди. Қирқ бет миқдоридан бўлган бу рисоланинг 18 саҳифаси алифбо, бошқаси ақоид ва амалиёти исломиядан иборатдур. Мунда кўпрак хуруф ва сўзларнинг турли ҳаракатлар билан қандай ўқилиши кўрсатилгандур»<sup>4</sup>*, – деб ёзади.

Саидахмад Васлий 1914 йилда Ҳанафия мазҳабининг назариётчиси, буюк фақиҳ Имом Аъзам (Улуғ Имом) ҳақида «Ал-калом ул-афҳом фи маноқиб ул-Имоми Аъзам» («Имом Аъзам ҳаёти ва сифатлари ҳақида сўзлар») асарини яратади. Муаллиф ўз асарида Имом Аъзамнинг улуғ сифатлари ҳамда даврининг маориф ва маданияти, мударрис ва талабалар маънавияти, муносабатлари ҳақида қуйидагича батафсил маълумот беради: *«Муҳаррири ҳақир (Саидахмад Васлийнинг ўзи – У.Д.) айтурки, Имом Аъзам рафторларини дастуруламал қилиб, шогирдларига бу каби марҳамат назари билан қараб, аввало дарсларини яхши тушунтириб, аққалан пул олмасдан тарбия қилсалар, балки шогирдлар нафақаларини бермаклари муносибдур, токи шогирдлар ҳам илмли, ҳам ҳиммат ва мурувватли бўлғайлар. Оҳ, на чора-*

*ки, бу замон таассуф замонидур, зероки, Имом Аъзам рафторлариға ҳаракат акси оз эмасдур».*

Мадраса талабаларининг кўп вақти илм олишдан кўра тирикчилик ўтказишга сарфланар эди. Улар ёз кезлари, ҳатто мустақил тайёргарлик (чоршанба, пайшанба, жума) кунлари пул топиш учун турли ишларни бажаришга мажбур эдилар. Талаба ҳам, мударрис ҳам давлат томонидан таъминланмас эди. Шунинг учун ҳам ҳатто домлалар талабалар кўлига қарам эди.

Саидахмад Васлий ўқитувчи қадрини ерга урувчи тамадан, талабага қарамликдан озод қилиш учун Имом Аъзам рафторларини (йўлларини) тутишга даъват этади: *«Шу замондаги мударрис бирла устодларга Имом Аъзам ҳазратларидек савдогарлик қилиб, тамадан пок бўлмоқ лозимдур. Балки талабаларга бир тангаллик тадрис қилмасдан, талабалар чўнтақларини холи қилмоқ мунсиб эмасдур. Зероки, бу замонда талаба дарс билмоқ ва такрор қилмоқдан ҳам зиёдароқ танга топиб, устодларни хурсанд ва бой этмакка сарфи масоъ қилурлар. Агар бирмунча шафқат ва меҳрибонлик устодлардан бўлиб, яхши ўқутмак мурод бўлса эрди, икки тарафга ҳам кўб савоб бўлур эрди».*

Саидахмад Васлий ислохотчи педагог сифатида Самарқандда очила бошлаган усули жаид мактаблари учун дарслик ва қўлланмалар яратди. У 1910 йилда ислохатпарварлик, маърифатпарварлик руҳидаги шеърларини тўплаб, Тошкентда Ильин типо-литографиясида ўқиш китоби сифатида «Адаб уд-дин» номи билан нашрдан чиқарди, дарсликка Мунавварқори Абдурашидхон ўғли муҳаррирлик қилди.

Маълумки, бу даврга келиб, мактаблар ислохоти анча юқори босқичга кўтарилган, усули жаид мактаблари кенг тарқала бошлаган, улар учун янги дастур ва дарс-

ликлар яратилаётган бўлиб, Мунавварқори, М.Беҳбудий, А.Авлоний, А.Шакурий, Ҳамза каби улуғ мутафаккирлар замон талабларига жавоб бера оладиган педагог кадрлар тарбиялаб етиштиришда фаолият кўрсатаётган эдилар. Аммо мадрасалар фаолиятида бирор ижобий ўзгариш сезилмас эди. Бунинг асосий сабабларидан бири генерал-губернаторлик маъмурларининг мадрасалар ислоҳотига кескин қаршилик кўрсатиши эди.

Рус миссионерларининг отаси Н.Ильминский (1822–1891) 1879 йилнинг 29 сентябрида шогирди Н.Остроумовга йўллаган хатида мадрасаларни асло ислоҳ қилмаслик, уларнинг дастурига дунёвий, амалий фанларни кириштишга йўл қўймасликни маслаҳат беради. Унинг фикрича, бундай фанлар маҳаллий ёшлар миллий онгининг уйғонишида асосий восита бўлади, бу эса ўз навбатида, Россиянинг ўлкадаги ҳукмронлигига қарши курашда улар учун қурол вазифасини ўтайди!<sup>5</sup>

1915 йилда «Ал-ислоҳ» журналида мадрасалар ва уларда таълим-тарбия, ўқитиш усуллари масалалари ислоҳотига бағишланган мунозара бўлиб ўтади. Мунозара Васлий мақоласи билан бошланади. Унда муаллиф мадрасаларда ўқитилиши зарур бўлган илмлар, мудarrisларнинг маънавий қиёфаси, билим даражаси, мадрасаларнинг ўқув дастурлари, ўқиш муддати каби муҳим масалалар ҳақидаги 10 та савол билан ўлка мудarrisларига мурожаат қилади:

1. *Муддати таҳсил неча сана бўлмак керак?*
2. *Ҳар санада неча ой таҳсил оyi бўлур?*
3. *Ҳар ҳафтада неча кун дарс ўқулур?*
4. *Бир сана ўқутулмиш китобнинг неча дарсга тақсим топиши лозим?*
5. *Ҳар таҳсил кунлари неча дарс ўқулса нофеъ бўлур?*

6. Ҳар дарсинг миқдори неча саҳифа бўлмак вожиб?

7. Шогирдларнинг тушунмаклари лозимми ёки дарсхонага кириб-чиқса бўлурми?

8. Мударрисларга жаҳд ила шогирдларни маълумотлик қилмаклари вожибми ёки кун ўтқариб, шогирдларни ишларга мардикор қилсалар жойизми?

9. Ижозат олиб хатм карда бўлмак учун, расмий дарсларни билмак учун улуми фунунга олим бўлмак лозимми ёки барвақти жамоага шерикул дарс бўлуб, келиб-кетиб, уч-тўрт сўм бериб Мулла Жалолхон бўлса кифоями?

10. Ҳар ким ўз бошича умр кечуруб, вақфларни еб, мударрисман деб юрса бўлурми – ёки улуғ уламолар ва ҳукумат тарафларидан назорат ва таҳқиқ фарзми?

Вассалом, яна керак нимарсаларни фузалои киром ҳазратлари ёзуб, «Ислоҳ» саҳифаларини музаррин қилсунлар, токи бора-бора бирор маслаҳат юз бериб, нофеъи умумий ҳосил бўлса эди, қориин киром «Ислоҳ»га салом ўқуб, қатъий калом эдирам».<sup>6</sup>

Албатта, мадрасаларнинг тартиб-интизомсизлиги, ўқитиш усулларининг тараққиётдан бутунлай узилиб қолганлиги, айниқса, мадрасалар учун умумий дастурнинг йўқлиги, уларнинг давлат эътиборидан бутунлай четда қолганлиги, бунинг устига, мадраса ва мударрисларни қисман бўлса-да, иқтисодий жиҳатдан таъминлаб турган вақф мулкларининг генерал-губернаторлик тасарруфига ўтиб кетганлиги, натижада, мадраса таълим-тарбиясини йўққа чиқарганлиги илғор фикрли мударрисларни ташвишга солар эди. Шунинг учун Саидахмад Васлий ўртага ташлаган масалалар атрофида ўша давр газета ва журналларида мударрисларнинг фаол чиқишлари эълон қилинган. Биринчи бўлиб бухоролик

мударрис Зиёвуддин мақсум мақола ёзиб, Васлийнинг ҳар бир саволига ўзининг муносабатини билдирган: «*Та-наззулимизнинг сабаби боиси таълим ва тааллумнинг йўқлигидаму ёки тартиб ва програм йўқлигидаму? Албатта, таълим ва тааллум бор, лекин тартиб йўқ. Ҳозиргача бу амру муҳим ва зарурийнинг ижросига чо-лишмадилар. «Ал-ислоҳ»нинг 13-нумерасинда муҳтарам Саидахмад Васлий жаноблари «Ҳиммат ул-рижол ва тақли ул-ижбол» сармақоласида бир мақола ёзиб, ом-манинг саъю ғайрати ва ҳамфикрларини «Ал-ислоҳ» воситаси ила майдонга қўймоқларини рижо этмишлар-дур ва 10–15 нимарсани керакми, керак эмасми, деб савол этмишлар. Биз ҳам фикрларимизни баён этдуб, баъзи саволларина жавоб берамиз. ... Эй устоз ва уламолар! Энди вақтни зое этмангиз, бизларнинг ва ўзларингизнинг мозий ва истиқболимизни тушунингиз: Ким эдук, на ўлдук, на ўлажакмиз, фикр этингиз! Ва-тан ва миллат авлодининг таълим-тарбияти сизлар-нинг ҳиммат ва ғайратингизга боғлидур».<sup>7</sup>*

Васлий Самарқандий 1909 йилда форс-тожик ти-лидаги 7000 мисрадан ортиқ шеърларини тўплаб, «Армуғони дўстон» ва 1913 йилда ўзбек тилидаги 4000 мисрадан ортиқ шеърларини тўплаб, «Тухфат ул-аҳбоб» номи билан девон тарзида нашрдан чиқаради. Шоирнинг ўзбекча девони қуйидаги тўртлик билан бошланади:

*Хуш «Тухфат ул-аҳбоб»и сухандондур бу,  
Виждон кўзига кўзгу ирфондур бу.  
Ким истаса аҳволи замон кўрмагини,  
Маъни назари-ла боқса мубайёнидур бу.<sup>8</sup>*

Мактаб ва мадрасалар ислоҳоти, илм-маърифатга даъват, ўзликни жаҳолатдан қутулишга ундаш каби ғоялар мазкур девондаги етакчи масалалардандир:

*Саҳарда хоби ғафлатдин менж бедор қил, ё раб,  
Дилимға бир боқиб ганжинайи асрор қил, ё раб.<sup>9</sup>*

Васлий шеърлари кучли дард билан ёзилган бўлиб, у мактабларимизнинг ободсизлигидан, «равнақи муътад» (муътадил равнақ), миллатга тўғри йўл кўрсатувчи йўқлигидан фарёд чекади. Шу билан бирга, шоир истиқболга, миллат келажагига катта умид билан қарайди:

*Бизлара бир мактаби обод йўқ,  
Мактабимиз бор, анга устод йўқ.  
Тарбияти зумраи авлод йўқ,  
Оҳ, бизим дилларимиз шод йўқ.  
Миллата бир равнақи муътад йўқ,  
Миллат учун навҳау фарёд йўқ.  
Кулфату ғамдин бизи озод эт,  
Васлийи дилхастая иршод эт.*

Васлий ўз даврининг ҳозиржавоб публицисти сифатида ҳам губернаторликнинг «Туркистон вилоятининг газети»дан тортиб, ҳамма жаид газета ва журналларида маориф ҳамда маънавиятнинг долзарб масалаларига бағишланган мақолалари билан фаол иштирок этди. Мақолаларида маърифатпарварликни исломий тафаккур ва шариат аҳкомлари билан боғлаб тарғиб қилади. Шу нуқтаи назардан, мутафаккирнинг «Самарқандда рус-тузем мактаби», «Илмнинг шарофати ва кераклиги», «Жарида ва усули жаид» мақолалари миллий Уйғониш даври маънавиятининг исломий-ирфоний жиҳатларини белгилашда муҳим аҳамиятга эга эди.

1914 йилда Саидахмад Васлий Фарғона водийси бўйлаб саёҳат қилади, усули жаид мактаблари фаолияти билан яқиндан танишади, Қўқондаги илм-маърифат аҳли билан учрашади. Айниқса, Абдулваҳоб Ибодий,

Ашурали Зоҳирӣ, Пўлатжон Қаюмӣ, Ҳамза мактаблари унда яхши таассурот қолдиради. Васлий «Садойи Фарғона» газетасининг нашр этилиши муносабати билан ўлка жадиidlарини муборакбод этиб, «Шукрона ва табрик» номи билан шеър битади. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий ҳам унинг Қўқонга келишини муборакбод этувчи шеър ёзади ва «Садойи Фарғона» газетасида эълон қилади. Шеърда у Васлийни «маърифат гулшанида миллат андалиби» деб олқишлайди. Васлий етук сиёсат арбоби сифатида 1917 йил 27 октябрда жадиidlар томонидан эълон қилинган Туркистон мухториятини зўр қувонч билан қабул қилади ва уни олқишлаб нутқ сўзлайди.

Саидахмад Васлий октябрь тўнтаришидан кейин ҳам педагогик фаолиятини давом эттирди: Улуғбек мадрасасида очилган ўқитувчилар тайёрлаш курсида умрининг охиригача ёш ўқитувчиларга дарс берди. Ғафур Ғулом таъкидлаганидек, унинг энг севимли машғулоти «муаллимлик ва ўз китобларини бостириб тарқатиш» эди. Ундан 17 номда чоп этилган ва 8 номда қўлёзма асарлар қолган. Уларнинг асосини дарсликлар ва таълим-тарбияга оид педагогик асарлар ташкил этади. Сермахсул ижод соҳиби, моҳир педагог, мударрис, шоир Саидахмад Васлий Самарқандий 1925 йилнинг 29 октябрида Самарқандда вафот этди.

Саидахмад Васлий йирик ислохотчи-педагог бўлиши билан бирга ўз даврининг закий уламоларидан эди. Шўролар даврида унинг сермахсул ижоди ва педагогик фаолиятини ўрганиш умуман мумкин бўлмади. Истиқлол туфайли Саидахмад Васлий фаолиятини ўрганишга кенг йўл очилди. Адабиётшунос олима Бадиа Муҳиддинова мутафаккирнинг тасаввуф фалсафасининг Нақшбандия

тариқати силсиласига бағишланган «Назм ус-силсила» асарини тожик тилидан ўзбек тилига таржима қилиб, 2001 йилда нашрдан чиқарди ҳамда 2009 йилда «Саидахмад Васлий Самарқандий мероси ва унинг адабий муҳитдаги ўрни» мавзусидаги номзодлик диссертациясини ҳимоя қилди. Мутафаккирнинг катта ҳажмдаги педагогик меросини тўплаш, тадқиқ этиш ва ижодкор халқимизнинг маънавий мулкига айлантириш галдаги вазифалардандир.

**Улуғбек ДОЛИМОВ,  
педагогика фанлари доктори,  
ЎзМУ профессори.**

---

<sup>1</sup> Ғафур Ғулом. Мукамал асарлар тўплами. 12 томлик 11-том. Т.:Фан, 1989, 36–38-б.

<sup>2</sup> Туркистон вилоятининг газети. 1906, 7-сон.

<sup>3</sup> //Ҳожи Муин. Васлий.//Маориф ва ўқитғувчи, 1925, 9–10-сон.

<sup>4</sup> «Маориф ва ўқитғувчи», 1926, 7–8-сон.

<sup>5</sup> П.В.Знаменский. Участие Н.И.Ильминского в деле инородческого образования в Туркестанском крае. Казань, 1900. С.26.

<sup>6</sup> «Ал-ислох» журнали, 1915, 13-сон..

<sup>7</sup> Ўша журнал, 17-сон.

<sup>8</sup> Васлий Самарқандий. Тухфат ул-аҳбоб. Девон. Т., 1912, 1-б.

<sup>9</sup> Ўша асар, 7-б.



## BIR G'AZAL Tahlili

### «Тилим лолу сиришким қон»<sup>\*</sup>

*Бало дашти аро Мажнун менингдек кўрмамиш даврон,  
Қуюндек ҳар замон бир кўрмаган водийда саргардон.*

*Не андуҳу малолимға балият даштидек ғоят,  
Не савдою жужунимға маломат баҳридек поён.*

*Тунум дайжур, ўзум ранжур, ичим ғамноку бағрим чок,  
Тилим лолу танним беҳол, ишим афғон, сиришким қон.*

*Заифу дарду ғам пеша, наҳифу меҳнат андиша,  
Залилу бесару сомон, қатили ханжари ҳижрон,*

*Фиғонимдин фалак ғамгин, сиришкимдин жаҳон рангин,  
На ишқим ўтиға таскин, на ҳажрим дардиға дармон.*

*Бошим ғам тошидин пора, танним ҳажр ўқидин ёра,  
Кўнгул бу ёраға чора топарға топмайин имкон.*

*Кўзум намлик, бўюм хамлик, ичим андуҳу мотамлик,  
На ҳамдамлик, на марҳамлик топиб бу меҳнати пинҳон.*

*Манга не ёру не ҳамдам, манга не дўст, не маҳрам,  
Манга не чора, не марҳам, манга не сабру не осмон.*

*Бу аҳволи табоҳимдин, фиғони умрқоҳимдин,  
Ҳам ўтлуқ дуди оҳимдин қарориб кулбаи аҳзон.*

*Фалак раҳзан, замон душман, бадан равзан уза равзан,  
Қолиб жон хисравидин тан, чиқиб тан кишваридин жон.*

*Навоий, бўлса меҳнат кўп ичокўр жоми шират кўп,  
Неча бўлса суубат кўп, қилур ваҳдат майи осон.*

<sup>\*</sup> А.Навоий. Ғазаллар. Шарҳлар. Т.: Камалак, 1991. 141-б.

Бу ғазал фақат Навоий меросидагина эмас, балки бутун ўтмиш шеърятимиздаги ижтимоий лириканинг энг ёрқин намуналари жумласига киради. У «Хазойин ул-маоний»ни тартиб беришда шоирнинг ўзи томонидан йигитлик йиллари девони сифатида тасниф этилган «Наводир уш-шабоб» таркибига киритилган бўлса-да, аслида, кексалик йиллари ижодий фаолиятига мансуб.

Лирик қаҳрамон – муаллиф «мен»ининг ички ҳаяжонли ҳайқириғи каби жарангловчи бу ғазал даврон жабру зулмию тақдир кемтиклигидан, фалак бедодию машаққатли турмуш ташвишларидан, замона аҳлининг шафқатсизлигию инсоннинг беқадрлигидан мунгли шикоят ва кескин норозилик тарзида ёзилган.

Унинг, беистисно, ҳар бир мисраси эрк-ҳуқуқлари, ғурур-шарафи зўравонлик билан топталган, ҳам маънавий, ҳам жисмоний аёвсиз эзилган покиза ва ҳалол инсоннинг чуқур изтироби, айна замонда, чексиз қаҳри билан йўғрилган. Худди шу боисдан бутун ғазалдан замонадаги қандайдир ёвуз кучлар томонидан оғир азоб-уқубатлар гирдобига улоқтирилган толеи паст ва унутилган қалб дардининг туғёни уфуриб туради. Бундай аянчли ва адолатсиз ҳолат билан асло келиша олмаслик борасидаги руҳий исён яққол юзага чиқади, норозилик оҳанги баралла жаранглайди.

Навоий ана шундай жиддий ижтимоий мазмунни кескин ва ўта таъсирчан ифодалашда юксак бадиий маҳорат намойиш этган. Шоир қўллаган ҳар бир истиора, тазод, сифатлаш ёки ташбиҳ, қиёслаш ва муболаға мантиқий бўлиб, ғазал-монологнинг умумий шиддатли руҳи, шикоят оҳанги ҳамда исёнкор йўналишига жиддий ҳисса бўлиб қўшилади. Ғазал байтлари шиддат ва ички ҳаяжон билан ўқилади.

*Бало дашти аро Мажнун менигдек кўрмамиш даврон,  
Қуюндек ҳар замон бир кўрмаган водийда саргардон.*

Баттол замон ва бевафо замона аҳли томонидан таъқиб ва тазйиқ остига олинган шахс тилидан ёзилган ғазалнинг бу бошланма байтидаёқ бутун асар учун етакчи бўлган дардли мазмун, исёнкор руҳ ҳамда кескин норозилик ўзининг ёрқин ифодасини топган.

...Бало-қазолар даштида жудоликда юрган Мажнуннинг не-не оғир кунларни бошидан кечирганлиги ҳаммага маълум. Аммо унинг кўрганлари, деб фиғон чекади лирик «мен», тортаётган менинг азоб-уқубатларим олдида ҳеч нарса эмас; менигдек бир нафас ҳам тинчлик-осойишталик билмай, водийда сарсон-саргардон кезган кимсани ҳеч ким кўрмаган. Байтдаги «даврон» сўзи бу ўринда ўзининг асл моҳиятини ўзгартириб, «бошга тушган кулфатлар, оғир кунлар» маъносини, умуман, адолатсизлик ва зўравонликни ўзида ифода этади.

Ғазалнинг кейинги барча байтлари мазкур бадий образ – «даврон»ни, қуюндек қадрсизлик ва сарсон-саргардонликнинг муайян қирраларини ёритиб, унга ўзига хос аниқликлар киритади.

*Не андуҳу малолимға балият даштидек ғоят,  
Не савдою жунунимға маломат баҳридек поён.*

Зеро, мен чекаётган ғам-ғуссаю қайғу-мусибатнинг на ранжу кулфат даштидек чек-чегараси бор ва на булар оқибатида юзланган шайдолигу телбалигимнинг маломат денгизидек ҳадду ҳудуди бор, дейилар экан, бу ана шу бесарҳад руҳий талошларнинг изоҳли талқинидек жаранглайди.

*Тунум дайжур, ўзим ранжур, ичим ғамноку бағрим чок,  
Тилим лолу таним беҳол, ишим афғон, сиришким қон*

Янада ғамгин ва қайғули йўналишда битилган мазкур байтда, бизнингча, кескин ва қатъий ҳукм руҳи ҳукмрондир.

...Кечам тим қоронғу, безиё («дайжур») дейилади байтда. Ўзим ранжу озор, мусибат остидаман («ранжур»); ичим ғам-ғуссага тўла («ғамнок»), бағрим эса тилка-пора («чок»); тилим тутилган, таним заиф, ҳолсиз, ишим оҳу фиғон чекишу кўзимдан қонли ёш оқизиш...

Шоир лирик қаҳрамоннинг ночор аҳволини юрагини тирнаётган мусибатни ёрқин ифодалай оладиган жуда кучли ва сермаъно сўз-образларни («дайжур», «ранжур», «ғамнок», «чок», «лол», «беҳол», «афғон», «қон») топа олади. Бугина эмас. Шоир худди шу сўзларга мантиқий урғу юклаб, улардан қофия сифатида фойдаланади, натижада, байт мисралари саккиз тенг бўлақларга бўлиниб, уларнинг ҳар бири ҳукму маҳкум руҳини эгаллайди:

- 1) Тунум дайжур.
- 2) Ўзум ранжур.
- 3) Ичим ғамнок.
- 4) Ва бағрим чок.
- 5) Тилим лол.
- 6) Таним беҳол.
- 7) Ишим афғон.
- 8) Сиришким қон.

Айтиш керакки, ғазалнинг шу байтидан бошлаб, умумий ягона қофияланишдан ташқари, ҳар бир байт мисраларининг мустақил ички қофияланганини кузатамизки, бу ҳол асарнинг бадиий жиҳатдан ҳам баркамоллигига яна бир далилдир.

*Заифу дарду ғам пеша, наҳифу меҳнат андиша,  
Залилу бесару сомон, қатили ханжари ҳижрон!*

Лирик «мен»нинг ўз иқрорича: у дарду ғамнинг доимий йўлдошлигидан заиф, чексиз азоб-уқубатлар ва хавфу хатардан озиб-тўзиб кетган, хору зор, айрилиқ ханжари уни қатл этган.

*Фиғонимдан фалак ғамгин, сиришкимдин жаҳон рангин,  
На ишқим ўтиға таскин, на ҳажрим дардиға дармон!*<sup>2</sup>

Яъни менинг чекаётган оҳу ноламдан фалак қайғу-мотамда. Тинимсиз оқаётган қонли кўзёшимдан бутун борлиқ қизил ранг олган. На ўртаётган ишқим ўтиға таскин ва на айрилиқ дардига шифо топаман.

*Бошим ғам тошидин пора, таним ҳажр ўқидин ёра,<sup>3</sup>  
Кўнгул бу ёраға чора топарға топмадим имкон!*

Байтда шоир «ғам тоши», «ҳажр ўқи» бирикмаларини қўллайди. Айтиш керакки, бу бирикмалар ҳам жуда кенг мазмунни ифодаловчи рамзий образлар даражасига кўтарилган ҳамда оқибат натижада лирик «мен»нинг инсоний шарафи ва қадр қимматини топтаган ижтимоий ёвуз кучларга, зўравонлик ва адолатсизликка киноя этади. Ана шундай ижтимоий мазмундор «ғам тоши»нинг тинимсиз зарбалари, «ҳажр ўқи»нинг эса узлуксиз қадалиши натижасида лирик «мен»нинг боши пора-пора, бутун танаю аъзолари яра-чақа, аммо, бундай ғам-мусибатлардан, қайғу-аламлардан қутулиш чораларини топишнинг иложи йўқ...

*Кўзум намлиқ, бўюм хамлиқ, ичим андуҳу мотамлиқ,  
На ҳамдамлиқ, на марҳамлиқ топиб бу меҳнати  
пинҳон.*

Кўринадики, ғазалнинг барча байтлари бир-бири билан мустаҳкам боғлиқ, бир-бирини тўлдиради, мазмунан чуқурлаштиради, далиллайди. Келтирилган байтда ҳам етакчи мавзу янгича қирраларда очилган: кўзим

ёш билан тўла, қадду бўйим букик, эгик; ичим эса ғам-ғуссага тўлиб-тошган, юрак-бағрим мотам-мушибат билан йўғрилган; вужудимни ўртовчи кўзга кўринмас бу азоб-қийноқларга на марҳам топа оламан, на дардлаша оладиган ҳамдамим бор.

Кейинги байт шу ғамгин таъкидни янада қатъийлаштириб, янада бўрттириб ифодалаш мақсадини кўрсатади. Айни замонда, бу байт ҳам Навоийнинг юксак бадий санъатига, мисрага тизилган ҳар бир сўз имкониятларини бош мақсад-ғояга тўла-тўқис хизмат эттириш маҳоратига ёрқин мисол бўла олади. Байтда ҳаммаси бўлиб ўнта сўз иштирок этади. Улардан бири – инкор «не» саккиз маротаба, иккинчиси – «манга» тўрт ўринда қайта-қайта келади. Аммо шоирнинг уста санъаткорлиги, жумладан, шундаки, бу такрорларнинг ҳеч бирини ноўрин ёки ғашга тегувчи, ғализлик туғдирувчи оддий қайтариқ дейиш мумкин эмас. Аксинча, улар ҳар бир конкрет ҳолатда жиддий маънавий вазифани ўтайди, ғояни таъкидлаб, ҳолатнинг чиндан ҳам фожиа моҳиятини чертиб кўрсатади, оҳангга шиддат ва суръат бахш этиб, уни хитоб, ҳайқириқ даражасига кўтаради:

*Манга не ёру не ҳамдам, манга не дўст, не*

*махрам,*

*Манга не чора, не марҳам, манга не сабру не сомон!*

Бундай аянчли, ночор аҳволимдан, ўтлик нолаю оҳимдан бурқсиб чиқаётган тутун қайғу-ҳасрат ғамхонамни янада қорайтириб, қоронғулаштириб юборган:

*Бу аҳволи табоҳимдин, фиғони умрқоҳимдин,<sup>4</sup>*

*Ҳам ўтлуқ дуди оҳимдин қарориб кулбам аҳзон!*

Навбатдаги байт, шубҳасиз, ғазалнинг шоҳбайтидир. Унда пояма-поя баланд пардага кўтарила борган шикоят, норозилик, қоралов юқори чўққига чиққан. Эн-

дилиқда яна ижтимоийлик олд ўринга ўтади – лирик «мен» «фалак»ни очикдан-очиқ қароқчи, йўлтўсар, бору йўғини зўрлик билан шилиб олувчи «раҳзан» дея қоралайди, «замон» эса унга нисбатан «душман»нинг худди ўзи. Ана шу «раҳзан» ва «душман»ларнинг ёвуз қилмишларидан унинг аъзойи бадани «равзан уза равзан», яъни илма-тешик, худди шу «раҳзан» ва «душман»ларнинг касрат-касофатидан жон ихтиёридан тан четда қолиб, тан мулкини жон тарк этган, бошқача айтганда, тандан жон, жондан тан айрилишга мажбур бўлган:

*Фалак раҳзан, замон душман, бадан равзан уза равзан,  
Қолиб жон хисравидин тан, чиқиб тан кишваридин  
жон!*

Ғазалнинг сўнги якунловчи байти фақат ички қофиялигина эмас, балки ички радифли ҳамдир. У шоирнинг ўзига таскин-ўғит аралаш мурожаати, хитоби тарзида битилган. Эй Навоий, дейилади унда, азоб-уқубат, қайғу-мусибат қанча кўп бўлса, ишрат жомини – шодлик ва хушнудлик, хурсандчилик ва хуррамлик қадаҳини шу қадар кўп ичавер; чунки барча қийинчилик ва мушкулликни ваҳдат майи осон қилади.

*Навоий бўлса меҳнат кўп, ичакўр жоми ишрат кўп,  
Неча бўлса суҳбат кўп қилур ваҳдат майи осон!*

Навоийнинг бу ғазали моҳиятан инсоний қадр-қиммат, шон-шараф, эрк-ҳуқуқнинг поймол этилишига қарши кучли норозиликнинг лирик воситаларда жуда таъсирчан ифодалашнинг ёрқин намунасидир. Ёвуз кучларнинг зўравонлигидан дардли шикоят исёнкор руҳ билан уйқаш юзага чиққан бу ғазал бадий жиҳатдан ҳам баркамолдир. У кейинги асрлар ўзбек ва қардош туркий халқлар ижодкорларига баракали таъсир кўрсатган.

Жумладан, буюк озарбайжон шоири Фузулий меросида Навоий ғазалига ҳам мазмун ва ижтимоий руҳ, ҳам бадий воситаларига кўра жуда яқин ғазал мавжудки, бу ўринда биз унинг фақат бошланғич байтини келтириш билан чекланамиз:

*Дўст бепарво, фалак бераҳм, даврон бесукун!*

*Дард чўх, ҳамдард йўқ, душман қавий, толеъ забун!*

Навоийнинг бу ғазалига бир қатор ижодкорлар, жумладан, XIX аср бошларида қалам тебратган иқтидорли шоир Муқимий ва Фурқатларнинг яқин дўсти Муҳаййир, шунингдек, Муҳйилар тахмис боғлаганлари маълум.

Ғазал нашридаги юқорида қайд этилган хатонуқсонларни биз Муҳаййир тахмисига асос бўлган матн бўйича аниқладик.

**Абдурашид АБДУҒАФУРОВ,  
филология фанлари доктори,  
профессор.**

---

<sup>1</sup> «Наводир уш-шабоб» нашрида (Т., 1959. 495-б.) бу мисра: «На дардим ўтиға ташкин, на ҳажрим дардиға дармон» шаклида хато берилган.

<sup>2</sup> Бу мисра ҳам ўша нашрда: «Бошим ғам тошидин ёра, таним ҳажр ўкидин пора» шаклида хато берилган.

<sup>3</sup> Бу мисра нашрда: «Ҳам аҳволи табоҳимдин, ҳам оҳи умри гоҳимдин» шаклида хато берилган.



**Туркий тилларда юкламаларнинг  
полисемантик, полифункционал табиати**  
(ўзбек ва турк тиллари мисолида)

Маълумки, юкламалар тилда айрим сўз ёки гапларга қўшимча маъно бўёғи беришда, ҳиссий-экспрессив қийматни ифодалашда қўлланилади. Юкламаларнинг ўзига хос хусусиятларидан бири – уларнинг қўшимча вазифада кела олишидир. Масалан, ўзбек тилидаги сўроқ ва таажжуб юкламалари буйруқ, дўқ, истак-хоҳиш, илтимос, шошириш, таъкид, уқтириш, тасдиқ, ишонч ва ҳис-ҳаяжон (ундов сифатида) маъноларини англатади.<sup>1</sup> Турк тилида ҳам kuvvetlendirme edatları – таъкид ва кучайтирув ёрдамчи сўзлари уқтириш, аниқлов, ўхшатиш, истак, тенглик, сабаб, ҳолат, мақтаниш, шикоят, танбеҳ маъноларини билдириб, «аммо, бироқ, ва, ҳамда» ёрдамчиларини ифодалайди.<sup>2</sup>

Ўзбек ва турк тилларида **ҳатто / hatta** юкламаси таъкид ва кучайтирув, аввалги воқеани эслатиш маъносини ифодалайди. Бироқ турк тилида бу сўз боғловчи сифатида қўлланилиб, гапларни **ayrıca, üstelik, bile, hem de** (бундан ташқари, бунинг устига, ҳам, яна, ҳамда) сўзлари билан боғлайди: *Konuştum, hatta evine gittim* (Сўзлашдим, **ҳатто** уйига ҳам бордим). *Köyde, hatta bütün çevre köylerde onu sevmeyen yoktu* (Қишлоқда, **ҳатто** атрофдаги барча қишлоқларда уни яхши кўрмайдиганлар йўқ эди). *Çalışıyor, hem de not alıyor* (Ишлайди, **ҳамда** олади). *Suçunu kabul etmiyor, üstelik başkasını suçluyor* (Гуноҳини тан олмайди, устига-устак бировни айблайди).<sup>3</sup>

Турк тилидаги **hem de, üstelik, bile** боғловчилари **hatta** юкламаси билан бир хил маънога эга.<sup>4</sup>

Турк тилида **hatta** юкламаси от туркумидаги сўзлар билан бирга келганда таъкид маъносини ифодалайди. Турк тилидагига қиёсан илмий таҳлил қилинса, ўзбек тилидаги **ҳатто** юкламасининг ҳам юқоридагича маънолари мавжудлигини кўриш мумкин: *Hatta oğlu da gelmedi* (Ҳатто ўғли ҳам келмади). *Bunu hatta sana da söylemem* (Буни ҳатто сенга айтмайман).

Hatta сўзи **bile** сўзи билан бирга қўлланганда, унинг гапдаги маъноси кучаяди: *Hatta görüşmeği bile istemezdi* (Ҳатто кўришишни ҳам хоҳламасди). *Bu soruyu hatta çocuk bile cevaplar* (Бу саволга ҳатто бола ҳам жавоб бера олади).

Турк тилидаги **sanki** сўзи *benzetme edatı, bağlaç*<sup>5</sup> деб номланиб, вазифаси жиҳатдан ўзбек тилидаги **гўё** чоғиштирув, ўхшатиш боғловчисининг вазифаси билан тенг: *O sanki hepimize üzülmüştü* (У гўё ҳаммамиздан хафа эди). *Bu haliyle sanki gitmemi istiyordu* (Бу билан гўё кетишни истаётганди).

**Gibi** (каби) кўмакчиси функциясида келади:<sup>6</sup> *Sanki gese olmuş (gibi)* (Гўё кеч тушгандай). *Sanki biri kapıyı çalıyor (gibi)* (Гўё кимдир эшикни тақиллатаётгандай). *Göğsünde sanki yıldız parlıyordu* (Кўксида гўё юлдуз порламоқда эди). *Göğsünde yıldız gibi parlıyordu* (Кўксида юлдуз каби порлар эди). *Sanki seni sevmiştin (gibi)* (Гўё сени севганди).

**Uyarı, sözüm ona, sözde, inanmama** (танбеҳ, хуллас, ишонмаслик) маъноларини билдиради:<sup>7</sup> *Sanki kabahat benimmiş (sözde, inanmama)* (Гўёки айбдор мен эканман). *Sanki onu aldın da ne kazandın (uyarı)* (Гўё уни олдингу, нимага эришдинг).

**Худди** аниқлов боғловчиси вазифасида келади: *Güneş ışığı altında mavi boyalı pencereler sanki lekelenmiş gibi görünüyordu* (Қуёш нури остида мовий бўёқли ром-

лар гўё доғли кўринарди). *Yol kenarında **sanki** babasının gelmesini bekliyordu* (Йўл четида туриб, гўё отасининг келишини кутарди).

Ўзбек тилидаги аниқлов юкламаси **худди** сўзига ўхшатиш маъносидагига яқин туради. **Худди** сўзининг аниқлов маъноси турк тилида **tipki, tam** сўзлари орқали ифодаланади: **Худди** отасининг ўзи – *Babasının **tam** kendisi*.

**Юкламаларнинг маъновий тузилиши:**

sanki	гўё	tipki	худди	tam	худди
	бамисоли		гўё		айнан
	худди		нақ		роппа-роса
	каби		асл		

Ўзбек тилидаги **фақат** айирув ва чегаралов юкламаси турк тилидаги **sadece** (фақат) *edati* маъносини ифодаловчи синонимик хусусиятга эга **yalniz/ёлғиз** сўзи мавжуд. Бу сўзнинг турк тилидаги эътиборга лойиқ жиҳати шуки, у айирув ва чегаралов маъносида **аммо, бироқ, фақат, лекин** зидловчи боғловчилари вазифасини бажаради. Ўзбек тилида эса бу сўз ажратиб кўрсатиш маъносидаги юкламани ифодалайди. Бироқ ҳар иккала тилда **ёлғиз** юкламаси сўз туркуми сифатида ҳам қўлланилади.

**Ўзбек тилида:** **Ёлғиз** сени деб яшайман (юклама). **Ёлғиз** яшаётганлигинг айбинг эмас (равиш). *Сен фақат ёлғизликдан кўрқ* (от). *У ўзини энг ғариб, энг ёлғиз инсон деб ўйларди* (сифат).

**Турк тилида:** *Cebinde **yalniz** yola yetecek kadar parası vardı* (*Edat*) (Чўнтагида фақат йўлга етадиган пули бор эди) (боғловчи). *Ne kadar **yalnizdi** şu anda* (*Zarf*) (Қанчалик ёлғиз эди шу тобда) (равиш). *Biz bu dünyada hep **yalniziz*** (Бу дунёда барчамиз ёлғизмиз). **Yalnizlığa dayanamat** (*Isim*) (Ёлғизликка чидолмайман) (от). *Buradaki en **yalniz** insan odur* (*Sifat*) (Бу ердаги энг ёлғиз инсон у бўлади)

(сифат). *Meyveler guzel, yalnız biraz renksiz* (Баглаç) (Мевалар чиройли, фақат сал рангсиз) (боғловчи).

Ўзбек тилидаги -чи сўроқ ва таажжуб юкламаси (баъзида -а(-я) ҳам) турк тилида **ya** (вариантлари -е, а) билан ифодаланади. Бу ёрдамчи сўз турк тилида ундов ва айирув боғловчиси вазифасини ҳам бажаради: *Manasını biliyor sunuz ya Kamran Bey* (Маъносини биласиз-а, Комронбей) (сўроқ). *Ben gitmiyorum. Ya sen?* (Мен кетмайман, сен-чи?) (сўроқ). *Git ya. Yaz ya. Oku ya* (Кетсанг-чи. Ёзсанг-чи. Ўқисанг-чи) (буйруқ). *Kalemini versene. Bir daha gelsene, sözümü dinlesene. Bunu alsana* (Ручкангни бериб турсанг-чи. Яна бир марта келсанг-чи, сўзимни эшитсанг-чи) (илтимос). *Ya kitap okursam. Ya yarın gidersem* (Ё китоб ўқисам-чи. Ёки эртага кетсам-чи) (истак-хоҳиш). *Çabuk yürüsene. Hızlı kalksana. Söylesene* (Тез юрсанг-чи. Тез турсанг-чи. Гапирсанг-чи) (шошириш). *Şuna bak ya. Dedim ya, artık olan olmuştu* (Бунга қара-чи. Айтдим-у, энди бўлар иш бўлди). *Söyledim ya, enişte, inanmıyorsunuz* (Айтдим-ку, почча, ишонмайсиз) (таъкид). *Ya Rabbi! Ya ne kadar acı sınavdı bu* (Ё Раб-би! Қандай аччиқ синов эди бу). *Ya ne güzel çiçekmiş!* (Нақадар чиройли гул экан!) (кучайтирув, ундов).

Ўзбек тилида мавжуд бўлмаган маънолари: *Ya, gerçekten sınavı geçemedi mi?* (Ҳақиқатан имтиҳондан ўта олмадимми?) *Ya, nasıl böyle olmuş?* (Қандай қилиб бундай бўлди?) (хайрат, таажжуб). *Ya onu beklemeli, ya çabuk eve dönmeli* (Ё уни кутишимиз, ё тезда уйга қайтишимиз керак) (танлаш, афзал кўриш). *Şuna baksana, güzel söylüyor ya* (Қарагин-а, чиройли гапиради (пичинг, кесатиқ).

Айирув боғловчиси функциясида: *Ya benimle git ya evde kal* (Ё мен билан кет, ёки уйда қол). *Tatil için ya Antalya'ya ya Izmir'e gidelim* (Таътилда ё Анталиёга ё Измирёга кетайлик).

**Иккиланиш, тахмин маъносида:** *Ya evindeyse, ya gitmişse* (Уйда бўлса-чи, кетган бўлса-чи...). *Ya geç kalırsa. Ya gelmezse* (Кеч қолса-чи...келмаса-чи...).

**Хавотир маъносида:** *Ya dönmezse* (Қайтмаса-чи...).

**Ya** турк тилида юқоридагилардан ташқари, кўшимча семантик ва функционал имкониятига ҳам эга. Яъни бу сўз айни вариантда ўзбек тилидаги сўроқ ва таажжуб, таъкид ва кучайтирув юкламалари -ахир, -ку, -у(-ю), -а(-я) маъноларини ҳам ифодалайди: *Ya, nasıl güzel bir çiçekmiş!* – Қандай гўзал гул-а! *Ya seni mi?* – Сени-я? *Ben gitmemiştim ya.* – Ахир мен кетмаган эдим. *Hiç bir şey söylemiyor ya.* – Ахир ҳеч нарса гапирмаяпти-ку. *Menzilini almıştı ya.* – Манзилни олган эди-ку. *Dün gitmiştim ya.* – Кеча бордим-у. *Beni gördü ya.* – Мени кўрди-ю. *Nasıl tedavi edeceksin? Aşk ya.* – Қандай даволайсан? Ахир бу ишқ-ку.

Иккала тилда юкламаларнинг полисемантик хусусияти уларнинг полифункционал қўлланилишига, тилда ўзаро нозик маъно бўёқларига эга алоҳида семантик гуруҳларнинг пайдо бўлишига, услубий синонимиянинг вужудга келишига шароит яратади. Ҳар бир юкламани стилистик имкониятлари нуқтаи назаридан қиёсий ўрганиш эса, ёрдамчи сўзларни амалда ўз ўрнида, тўғри қўллаш билиш тил маданиятини ўзлаштиришда жуда муҳимдир.

**Нилуфар АБДУЛЛАЕВА,  
ЎЗМУ тадқиқотчиси.**

<sup>1</sup> Ғ.А.Абдурахмонов, Ш.Шоабдурахмонов, А.П.Ҳожиев. Ўзбек тили грамматикаси. Морфология. I том. Т.: Фан, 1975, 433–434-б; У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Раҳматуллаев. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: Ўзбекистон, 1992. 388–389-б.

<sup>2</sup> Türkçe dil bilgisi. TÖMER. İstanbul: Gazi Üniversitesi, 2000. s. 181–189; ÖSS Türkçe. İzmir: Fem yayınları, 2001, s. 113–119; Hacıeminoğlu N. Türk dilinde edatlar. İstanbul: Milli Eğitim, III baskı, 1984. s. 245–257.

<sup>3</sup> Ergin M/ Türk dil bilgisi. 19 baskı, İstanbul: Bayrak, 1992, s. 348–373; Banguoğlu T. Türkçenin grameri. 2 baskı, Ankara: Türk Tarih Kurumu, 1986, s. 385–408.

<sup>4</sup> ÖSS Türkçe. İzmir: Fem yayınları, 2001. s. 118.

<sup>5</sup> Ўша асар, 114-б.

<sup>6</sup> Ўша асар, ўша бет.

<sup>7</sup> Ўша асар, ўша бет.

### **Мустақиллик даври хрононимлари**

Маълумки, ўзбек тили луғат таркиби атоқли отларга бой, бироқ уларнинг барча кўринишлари етарли, тўлиқ жамланмаган, илмий манбаларда тилга олинса-да, махсус ўрганилмаган.<sup>1</sup> Ана шундай атоқли от турларидан бири **хрононимлардир**.

**Хрононим** (юн. *chronos* – вақт, муддат + *onoma* – атоқли от) – тарихий даврлар, босқичларга оид тушунчаларнинг атоқли оти ҳисобланади. Масалан, *Уйғониш даври, Темурийлар даври, Мустақиллик даври* каби. Тилдаги хрононимлар мажмуи эса **хрононимия** деб аталади.<sup>2</sup>

Н.В.Подольская хрононимларга инсоният ҳаёти ва анъаналари билан боғлиқ тарихий даврлар, саналар, жумладан, маълум сана билан боғлиқ воқеа-ҳодиса, байрам ва хотира кунларининг махсус атоқли номларини киритган: *Ялта конференцияси, Ўрта асрлар, Ғалаба байрами, Янги йил, Рождество* каби.<sup>3</sup>

Ушбу мақолада мамлакатимизда рўй берган ва амалга оширилган сиёсий, иқтисодий ва маданий ислохотлар, ўзгаришлар боис юзага келган **Мустақиллик даври хрононимлари** ҳақида фикр юритамиз.

Ўзбек тилидаги Мустақиллик даври хрононимиясини қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин:

1. **Давр номлари:** *Қайта қуриш даври, Мустақиллик даври* каби.

2. **Йилларнинг махсус номлари:** *Мирзо Улуғбек йили* (1994), *Амир Темури йили* (1996), *Инсон манфаатлари йили* (1997), *Оила йили* (1998), *Аёллар йили* (1999), *Соғлом авлод йили* (2000), *Оналар ва болалар йили* (2001),

*Қарияларни қадрлаш йили (2002), Обод маҳалла йили (2003), Меҳр ва мурувват йили (2004), Сиҳат-саломатлик йили (2005), Ҳомийлар ва шифокорлар йили (2006), Ёшлар йили (2008), Қишлоқ фаровонлиги ва тараққиёти йили (2009), Баркамол авлод йили (2010) каби.*

**3. Байрам сифатида нишонланадиган кун, сана номлари:** *8 март – Хотин-қизлар кун, 21 март – Наврӯз байрами, 1 сентябрь – Мустақиллик кун* каби.

**4. Инсонларни хотирлаш билан боғлиқ сана номлари:** *9 май – Хотира ва қадрлаш кун, 31 август – Қатағон қурбонлари* каби.<sup>4</sup>

**5. Кенг миқёсда нишонланадиган касб кунларининг номлари:**

*14 январь – Ватан ҳимоячилари кун, 1 октябрь – Ўқитувчилар ва мураббийлар кун* каби.

Ономастикага оид терминологик луғатларда ҳар қандай байрам, хотира саналари, тантана ва фестивалларнинг атоқли номлари **геортонимлар** деб изоҳланади ва байрам ҳамда тантаналар маълум вақтда, кунда нишонланишига кўра геортонимлар сирасига кирувчи номларнинг хрононимлар билан боғлиқлиги кўрсатилади.<sup>5</sup> Демак, геортонимлар байрам ва бошқа тадбирлар билан боғлиқ сана, кунларни ифодалашига кўра хрононимларнинг бир туридир.

Хрононимлар таркибий тузилишига кўра асосан мураккаб номлар гуруҳига мансуб бўлиб, атрибутив бирикма шаклида қуйидаги шаклларга эга:

1) **атоқли от + апеллятив (от):** *Амир Темур йили, Мирзо Улуғбек йили* каби;

2) **апеллятив (от) + апеллятив (от):** *Оила йили (1998), Аёллар йили (1999), Сиҳат-саломатлик йили (2005)* каби;

3) **апеллятив (от) + боғловчи + апеллятив (от):** *Оналар ва болалар йили (2001), Меҳр ва мурувват*

йили (2004), *Ҳомийлар ва шифокорлар йили* (2006), *Ўқитувчи ва мураббийлар кун* (1 октябрь) каби;

4) **апеллятив (сифат) + апеллятив (от) + апеллятив (от):** *Соғлом авлод йили* (2000), *Обод маҳалла йили* (2003), *Баркамол авлод йили* (2010) каби.

Хрононимлар таркибида доимо *кун, ой, йил, давр, аср* каби вақт тушунчасини ифодаловчи апеллятивлар – оддий сўзлар қўлланади ва маълум сўзларга асосан ҳеч қандай грамматик воситаларсиз – битишув усули асосида боғланиб, уларни хрононим сифатида шаклланишига хизмат қилади.

Демак, хрононимлар маъновий тузилишига кўра социолингвистик моҳиятга эга бўлиб, Ўзбекистон Республикасининг сиёсий, иқтисодий, маданий, маърифий соҳадаги сиёсати, тадбирлари ва ислохотлари маҳсули ҳамда ўзбек халқининг тарихий-анъаналари, урф-одатларини ифодаловчи лисоний бирликлардир.

Ўзбек тили хрононимияси анча бой бўлиб, улар маҳсус тўпланмаган ва тадқиқ этилмаган. Келгусида ўзбек тилидаги тарихий хрононимларни тўплаш ҳамда монографик аспектда тадқиқ этиш ўзбек ономастикасининг долзарб вазифаларидан биридир.

**Носиржон УЛУҚОВ,  
НамДУ доценти, филология  
фанлари номзоди.**

<sup>1</sup> Қаранг. Э. Бегматов, Я. Авлақулов. Ономастик кўлам тушунчаси // *Ўзбек тили ва адабиёти*, 2007. 3-сон. 17–20-б.; *Ўзбек тили ономастикасининг макроқўлами таркиби* // *Ўзбек тили ва адабиёти*, 2007. 5-сон. 33–39-б.

<sup>2</sup> Э. Бегматов, Н. Улуқов. *Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати*. Наманган, 2006. 91-б.

<sup>3</sup> Қаранг. Н.В.Подольская. *Словарь русской ономастической терминологии*. Москва: Наука, 1978. С.162.

<sup>4</sup> Қаранг. Илова. *Ўзбекистон Республикасининг Мустақиллик даври йилномаси* // *Ўзбекистон Миллий энциклопедияси*, 2005. 11-ж. 458–499-б.

<sup>5</sup> Н.В.Подольская. *Словарь русской ономастической терминологии*. Москва: Наука, 1988. С. 48.

## Иқтисодий терминларнинг ясалиши

«Давлат тили ҳақида»ги Қонун қабул қилинганидан сўнг ўзбек (давлат) тилида фаолият юритувчи мутахассислар тайёрлаш зарурияти туғилди. Шу муносабат билан ўзбек тилининг илмий услубига оид дарслик ва қўлланмаларда ўзбекчалаштирилган атамаларни қўллашга катта эътибор қаратилди. Ушбу мақолада биз иқтисод фанига оид соф ўзбекча атамаларнинг ясалиши хусусида сўз юритмоқчимиз.

Иқтисодиёт терминологиясида морфологик усулда сўз яшаш энг сермахсул усул бўлиб, мазкур соҳага оид иқтисодий терминлар қуйидаги аффикслар билан ясалади:

-чи аффикси турли категорияларга оид шахс номларини ясаб келади: *иқтисодчи, сараловчи, ижарачи, истеъмолчи, солиқчи, таъминловчи, пудратчи, ҳисобчи, назоратчи, рақобатчи, буюртмачи, кафолатловчи;*

-ма аффикси ўзбек тилида хилма-хил маънони ифодаловчи лексемалар ясайди: *ғамлама, устама, уюшма, бирлашма, тузилма, буюртма, бўлинма, ундирма;*

-кор аффикси асосдан англашилган нарса-предметни етиштириш билан шуғулланувчи шахс отини ясаса (*пахтакор, ғаллакор* каби), иқтисодий терминологик тизимда мавҳум отларга қўшилиб, улардан англашилган иш-ҳаракат билан шуғулланувчи шахс отини ясайди: *чоракор, тадбиркор, тежамкор, соҳибкор;*

-дор аффикси асосдан англашилган нарса-предметга эга бўлган шахс номини ҳосил қилади: *мулкдор, қарздор, насиядор, сармоядор, ҳиссадор;*

-*нома* аффикси иқтисодий терминологик тизимда асосдан англашилган нарсани ифодаловчи матн, хат ва шу кабиларни билдиради: *шартнома, аҳднома, йўриқнома, рухсатнома, сўровнома, топшириқнома*;

-*от* (-*ат, -ёт, -ят*) аффикси аслида арабий лексемалар таркибидагина луғавий бирликларни ясаб келган мазкур сўз ясовчи қатор терминологик тизимларда бир қадар фаол иштирок этиб келади: *тақсимот, ҳисобот, иқтисодиёт, таъминот, маҳсулот, рақобат*;

-*лик* аффикси кўмагида абстракт тушунчалар ёрдамида иқтисодий терминлар ясалган: *тақчиллик, танқислик, мулкчилик, фойдалилик, боқимандалик, рентабеллик, хўжалик, устуворлик*;

-*бе* аффикси ёрдамида *беҳисоб, бебаҳо, бепул, бешойда, бевосита*;

-*сиз* аффикси кўмагида: *ҳисобсиз, баҳосиз*. -*бе* аффикси билан -*сиз* аффикси синоним ҳолда қўлланилади: *беҳисоб-ҳисобсиз*;

-*хўр* аффикси аслида форс тилидан ўзлаштирилган бўлиб, асосдан англашилган нарсани доим «истеъмол қилувчи» маъносидаги шахс номларини ясаб келади: *фойдахўр, судхўр, нафақахўр, меросхўр*;

-*м* (-*им*) аффикси ёрдамида: *боқим, битим, кирим, чиқим*;

-*в* (-*ов*) аффикси кўмагида: *тўлов, ўлчов*;

-*қ* (-*иқ*) аффикси билан: *солиқ, сотиқ*;

-*гар* аффикси ёрдамида эса: *савдогар, заргар*;

-*ш* (-*иш*) аффикслари иштирокида: *ундириш, ривожлантириш, хусусийлаштириш, қадрсизланиш, жиловлаш, барқарорлаштириш, соғломлаштириш, рақобатлаштириш, ҳимоялаш*;

-*чилик* аффикси бирор нарса билан боғлиқ бўлган ҳолатни англатувчи терминларни ясайди: *тижоратчилик, мулкчилик, касаначилик*;

-корлик форсча -кор аффиксига ўзбекча -лик сўз ясовчи қўшимчасини қўшиб ҳосил қилинадиган сўзларни ясайди: *тежамкорлик, тадбиркорлик;*

-лилик аффикси: *тежамлилик, унумлилик, ликвидлилик;*

-дорлик аффикси форсча -дор ҳамда ўзбекча -лик аффиксларининг бирикувидан ташкил топган: *маҳсулдорлик, мулкдорлик, акциядорлик, самарадорлик, унумдорлик манфаатдорлик, маҳсулдорлик* каби сўзларни ясайди.

Умуман, ҳозирги ўзбек тилининг иқтисодий терминологик тизимида морфологик усул билан терминлар ҳосил қилиш жуда фаолдир. Чунки ҳозирги бозор иқтисодиётига ўтиш даврида янги-янги терминларнинг кириб келиши бу соҳага тегишли сўзларнинг бойиб боришига асос бўлмоқда.

Ўзбек тилидаги иқтисодий атамалар орасида семантик ёхуд семантик-синтактик усул билан ясалган соф ўзбекча ёки ўзбек тилида аввалдан қўлланиб келинган арабча ва форсча элементли сўз бирикмалари учрайди: *йиғма кўрсаткич, амалий бойлик, қарз ўсими, ўтма сўм, ундирилган пул, унумсиз меҳнат, капитал сиғими, очиқ даромад, пул массаси, бозор мувозанати, молиявий механизм.*

Ўзбек тили иқтисодий терминология тизимида бошқа соҳаларга тегишли лексемаларнинг қатнашиши билан ҳам (семантик усулда) янги сўзлар ясалган:

1. Иқтисод термини вазифасини бажарувчи математик атамалар: *чорак режа, норматив қиймат, дифференциал рента, йиғма кўрсаткич, иш ҳақи даражаси, даромаднинг қолдиғи, иқтисодий интеграция, бозор ҳажми, нисбий даража, нарх даражаси, фойда миқдори, қиймат ўлчови, бўлинма, қиймат солиғи;*

2. Физикага оид терминлар билан алоқадор сўзлар ҳам иқтисодий атама вазифасини бажаради: *бозор мувозанати, меҳнат сиғими, капитал сиғим, нисбий даража, пул массаси, тебранувчи талаб, ўзгарувчан харажат, доимий харажат, ўзгарувчан нарх, мутлақ даража, талабнинг эгилувчанлиги, фонд сиғими.*

3. Қишлоқ хўжалигига тегишли сўзлар иштирокида ҳам иқтисодий атамалар ясалади: *аграр кризис, соҳибкорлик, қийматнинг ўсиши, товар хўжалиги, ўсим, қарз ўсими, ундирилган пул, пул ундириш, унумсиз чиқим, унумсиз харажат, ундириладиган солиқ, иқтисодий ўсиш, талабни ўстириш, агробизнес.*

Умуман, ўзбек тилининг иқтисодий терминологиясида морфологик, семантик усуллар билан сўз ясалиши сермаҳсул усуллардан ҳисобланади.

**Эркин ЮСУПОВ,  
Тошкент ирригация ва мелиорация  
институтининг катта ўқитувчиси.**



---

**AMALIY FOYDALANISH UCHUN**

---

**Mumtoz badiiyat bo'yicha test savollari\*****SAYFI SAROYI**

1. «Topilmas husn mulkinda...» g'azalidagi  
*Bu husnung shavq-u zavqini ko'ngul to'tilari topti,  
Na topti? Topti xush lazzat, na lazzat? Lazzati shakkar*  
baytida qo'llangan istiora san'ati qaysi ifodada o'z aksini topgan?
  - A. Bu husnung.
  - B. Shavq-u zavqini.
  - C. Ko'ngul to'tilari.
  - D. Xush lazzat.
  - E. Lazzati shakkar.
  
2. «Ko'rinur» g'azalining  
*Bozor ichinda husning ishva sotib olur jon,  
Bo'ston ichinda qadding sarvi ravon ko'rinur*  
baytidagi she'riy san'atlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
  - A. Mubolag'a, tajnis.
  - B. Iyhom, tazod.
  - C. Husni ta'lil, tarsi'.
  - D. Irsoli masal, takrir.
  - E. Tashxis, tashbih.
  
3. «Qamar yuzungdin...» deb boshlangan g'azaldagi  
*Qamar yuzungdin bo'lur munavvar,  
Shakar so'zungdin kelur mukarrar*  
baytida qaysi she'riy san'atdan foydalanilgan?

---

\* Anvar Hojiahmedov. She'r san'atlarini bilasizmi? T.: Sharq, 2001.

- A. Mubolag'a.
- B. Tashxis.
- C. Iyhom.
- D. Tazmin.
- E. Tajnis.

4. «Vasful shuaro» she'ridagi

*Jahon shoirlari, ey gulshani bog',  
Kimi bulbuddurur so'zda, kimi zog'*

baytida qo'llangan she'riy san'atni topa olasizmi?

- A. Tajohuli orifona.
- B. Irsoli masal.
- C. Tashbih.
- D. Iyhom.
- E. Tazod.

5. «Suhayl va Guldursun» dostonidagi

*Suhayl husni erur Yusufdin oliy,  
Etar mot olmani yuzining oli*

baytida qo'llangan lafziy san'at nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Tajnis.
- B. Talmeh.
- C. Ishtiyoq,
- D. Tazmin.
- E. Irsoli masal.

6. «Suhayl va Guldursun» dostonidagi

*Gunash dunyo yuzindin chohg'a botti,  
Uzulgan gul tekin tuproqqa yotti*

baytida qo'llangan san'atlarni aniqlang,

- A. Tazmin, tazod.
- B. Husni ta'lil, tashbih.



- C. Irsoli masal, istiora.
- D. Tanosub, takrir.
- E. Ishtiyoq, tardu aks.

7. Shu asardagi

*Suhaylni ko'rdi-yu, aylandi birtek,  
Gunash girdinda yurgan misli yertek*

baytida she'riy san'atlarning qaysi biridan foydalanilgan?

- A. Mubolag'a.
- B. Tashbih.
- C. Tazod.
- D. Tajohuli orifona.
- E. Tajnis.

8. «Suhayl va Guldursun» dostonidagi

*Suhayl ohidin shu dam qo'пти bo'ron,  
Aningtekkim, buzuldi charxi davron*

baytida shoir qanday she'riy san'atlarga murojaat qilgan?

- A. Tashbih, tazmin.
- B. Mubolag'a, tashbih.
- C. Tajnis, tazod.
- D. Tanosub, husni ta'lil.
- E. Irsoli masal. Talmih.

9. Dostonning

*Ko'rub Guldursun og'lab holig'a yuz,  
Choh ichra kirdi, qo'ydi yuzina yuz*

baytidagi she'riy san'atni aniqlay olasizmi?

- A. Tashbih.
- B. Tashxis.
- C. Tajnis.
- D. Iyhom.
- E. Tazod.

10. Dostondagi

*U sahro ichra chorasiz qoldi yolg'iz,  
Bo'lub tashna qurub qolg'ontek ildiz*

baytida qo'llangan san'at nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Talmeh.
- B. Tazod.
- C. Mubolag'a.
- D. Tashbih.
- E. Ishtiyoq.

**XORAZMIY  
«MUHABBATNOMA»**

1. «Avvalgi noma»dagi

*Ko'ngul shirin so'zungg'a bo'ldi Farhod,  
Ko'zung Kashmir jodusig'a ustod*

baytida shoir qaysi she'riy san'atga murojaat qilgan?

- A. Tajnis.
- B. Tazod.
- C. Talmeh.
- D. Iyhom.
- E. Tajohuli orifona.

2. Shu nomadagi

*Tabassum qilsangiz, shakkar uyolur,  
Tishing injusidin gavhar uyolur*

baytida qo'llangan she'riy san'at nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Tashxis.
- B. Tashbih.
- C. Tazod.
- D. Irsoli masal.
- E. Tanosub.

## 3. Ikkinchi nomadagi

*Ayitqil, ey visoling umr bog'i**Eshiging tuprog'i kavсар bulog'i*

baytida qo'llangan she'riy san'atlar qaysi javobda to'g'ri belgilangan?

- A. Tajnis, tazod.
- B. Istiora, tashbih.
- C. Tazmin, mubolag'a.
- D. Iyhom, takrir.
- E. Tanosub, tajohuli orifona.

## 4. Uchinchi nomadan o'rin olgan

*Raqibingdir tikan, siz toza gulsiz,**Chechak chimgan aro bo'lmas tikansiz.*

baytida qo'llangan she'riy san'atlar qaysi javobda to'g'ri belgilangan?

- A. Tazod, tanosub, tashbih, tamsil.
- B. Mubolag'a, tazmin, tajnis, tazod.
- C. Tajohuli orifona, husni ta'lil, iyhom, irsoli masal.
- D. Tarsi', takrir, tardu aks, istiora.
- E. Zulqofiyatayn, tashxis, tajnis, tashbih.

## 5. Beshinchi nomadagi

*Xiraddan ozdurur g'amzang xumori,**Yang'oqlaring Xalilulloh nori*

baytida shoir qo'llagan san'atlarni aniqlay olasizmi?

- A. Tashbih, mubolag'a, talmeh.
- B. Tardu aks, tazmin, tajnis.
- C. Iyhom, irsoli masal, tanosub.
- D. Takrir, intoq, ishtiyoq.
- E. Tajohuli orifona, husni ta'lil, mubolag'a.

6. Oltinchi nomadagi

*Tishing, la'ling guhar jon durji ichra,  
Yuzung, qoshing quyosh oy burji ichra*

baytidagi san'atlar nomi qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?

- A. Istiora, tashbih.
- B. Tajohuli orifona, irsoli masal.
- C. Tazod, tajnis.
- D. Iyhom, irsoli masal.
- E. Husni ta'lil, tashxis.

7. Yettinchi nomadagi

*Shakarmu erningiz, yo qand, yo jon,  
Uyolur la'lingizdin obi hayvon*

baytida qo'llangan she'riy san'atlarni aniqlay olasizmi?

- A. Tazod, irsoli masal.
- B. Iyhom, tazmin.
- C. Tajohuli orifona, tashxis.
- D. Tanosub, tajnis.
- E. Mubolag'a, takrir.

8. To'qqizinchi nomadagi

*Meni qildi falaktek besar-u poy,  
Tag'i ming yidda sentek tug'mag'ay oy*

baytidagi san'atlar qaysi javobda to'g'ri belgilangan?

- A. Tashbih, istiora.
- B. Irsoli masal, tazmin.
- C. Tajnis, takrir.
- D. Iyhom, tanosub.
- E. Tardu aks, tajnis.

9. O'ninchi nomadagi

*Ayo nomehribon, ahdi, vafosiz,  
Jahon yeltek, umr gultek baqosiz*

baytida qofiyaning qaysi turidan foydalanilgan?



- A. Mujarrad qofiya.
- B. Murdaf qofiya.
- C. Ridfi zoyidli murdaf qofiya.
- D. Muqayyad qofiya.
- E. Muassas qofiya.

10. O'ninchi nomadagi

*Talim gulchehra nargis ko'zlilar bor,  
Shakar dudog'li, shirin so'zlilar bor.*

bayti qaysi vaznda yozilgan?

- A. Ramali musammani mahzuf.
- B. Mutaqoribi musammani maqsur.
- C. Hazaji musaddasi maqsur.
- D. Hazaji musammani solim.
- E. Hazaji musammani axrab.

### **ATOYI**

1. «Jamoling vasfin»... deb boshlanuvchi g'azaldagi
- Jamoling vasfini qildim chamanda,  
Qizordi gul uyottin anjumanda*

baytida qaysi she'riy san'atdan foydalanilgan?

- A. Tashbih.
- B. Husni ta'lil.
- C. Tajnis.
- D. Iyhom.
- E. Tazmin.

2. Shu g'azalning

*Solib borma meni, ey Yusufi husn,  
Bukun Ya'qubtek baytul hazanda*

baytida shoir qanday she'riy san'atdan foydalangan?

- A. Mubolag'a.
- B. Tashxis.
- C. Talmeh.

D. Irsoli masal.

E. Ishtiyoq.

3. «Mango» gʻazalidagi

*Javrungiz mehr-u vafodur, dardingiz ayni davo,  
Filmasal, gar oʻlturursiz, mehribon sizens mango*

baytida qoʻllangan sheʼriy sanʼatni belgilang.

A. Tajnis.

B. Irsoli masal.

C. Iyhom.

D. Tazod.

E. Tanosub.

4. «Ey doʻst» gʻazalidagi

*Odangʻa seni oʻxshata bilmonki, parisen,  
Nortek yangoqing bogʻi Eramdur manga, ey doʻst*

baytidagi sheʼriy sanʼat nomi qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?

A. Tashbih.

B. Tazod.

C. Tajohuli orifona.

D. Irsoli masal.

E. Tashxis.

5. «Boʻlubtur» gʻazalidagi

*Xino rangimudur barmoklaringda,  
Yo oshiq oʻltururda qon boʻlubtur*

baytida qoʻllangan sheʼriy sanʼat nomini aniqlang.

A. Tashbih.

B. Tajohuli orifona.

C. Tajnis.

D. Tashxis.

E. Tazmin.



6. «Ul sanamkim» gʻazalidan oʻrin olgan

*To magarkim salsabil obina javlone qila,  
Keldi jannat ravzasindin obi kavsar sori hur*

misralarida shoir qaysi sheʼriy sanʼatga murojaat qilgan?

- A. Tanosub.
- B. Mubolagʻa.
- C. Tarsiʼ.
- D. Tazod.
- E. Takrir.

7. «Ul sanamkim» gʻazalidagi

*Qoshlaring yosin Atoyi koʻrgali husn ichra toq,  
Subhidam mehroblarda surai yosin oʻqur*

baytida qaysi sheʼriy sanʼatga asoslanilgan?

- A. Tashxis.
- B. Irsoli masal.
- C. Tajnis.
- D. Talmeh.
- E. Iyhom.

8. «Ul sanamkim» gʻazalidagi

*Ul ilikkim suvdin oriqtur, yumas oni suda,  
Balki suvni pok boʻlsun deb iligi birla yur*

baytida qoʻllangan sheʼriy sanʼatni belgilay olasizmi?

- A. Tashbih.
- B. Mubolagʻa.
- C. Husni taʼlil.
- D. Irsoli masal.
- E. Istiora.

9. «Soching chun laylatul qadr-u...» gʻazalidagi

*Soching chun laylatul qadr-u yuzung chun subhi*

*sodiqgur,*

*Bu shom-u husnunga tun-kun koʻngul jon birla oshiqtur*

baytida qofiyaning qaysi turidan foydalanilgan?

- A. Mujarrad qofiya.
- B. Muassas qofiya.
- C. Murdaf qofiya.
- D. Ridfi zoyidli murdaf qofiya.
- E. Muqayyad qofiya.

10.«Ul sanamkim» gʻazali aruzning qaysi vaznida yozilgan?

- A. Hazaji musammani solim.
- B. Mutaqoribi musammani mahzuf.
- C. Hazaji musaddasi mahzuf.
- D. Ramali musammani mahzuf.
- E. Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf.

### **LUTFIY**

1. «Suratingni kimki koʻrdi....» deb boshlangan gʻazaldagi

*Sensizin qilmay tahammul nola qilsam qilma ayb,  
Gar bu yuk yuklansa toqqa, kelgay ondin yuz sado*

baytida qaysi sheʼriy sanʼatdan foydalanilgan?

- A. Tashbih.
- B. Mubolagʻa.
- C. Talmeh.
- D. Iyhom.
- E. Tazmin.

2. «Sensan sevarim...» gʻazalidagi

*Yaʻqub bikin koʻp yigʻidin qolmadi sensiz  
Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma*

baytida qaysi sheʼriy sanʼat qoʻllangan?

- A. Tazod.
- B. Irsoli masal.
- C. Tanosub.
- D. Talmeh.
- E. Tajnis.

3. «Haq ul kunkim...» g'azalidagi

*Qilur da'viyi nur ul sham'i majlis,  
Magar parvona shomimdin olubdur*

baytida shoir asoslangan she'riy san'at nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Talmeh.
- B. Tanosub.
- C. Tajnis.
- D. Tazmin.
- E. Mubolag'a.

4. «Haq ul kunkim...» g'azalidagi

*Xirad netmay ketar mendek gadodin,  
Qoshimg'a ul shahi xo'bon kelibdur*

baytida qaysi she'riy san'atga asoslanilgan?

- A. Irsoli masal.
- B. Tarsi'.
- C. Tazod.
- D. Tajohuli orifona.
- E. Tashxis.

5. «Gul qoshingda xo'b emas...» g'azalidagi

*Oy yuzungning xijlatindin gul qizordi, xoliyo,  
Xanda birla o'tkarur, chun infiola bor durur*

baytida qo'llangan she'riy san'atni aniqlang.

- A. Talmeh.
- B. Tajnis.
- C. Tazmin.
- D. Husni ta'lil.
- E. Zulqofiyatayn.

6. «Ey ko'ngul...» g'azalidagi

*Ey quyosh, yuzungdin ayru yangi oydek bo'lmisham,  
Kim qolurg'a o'zga yo'qtur bir zamon tobim mening*

baytida foydalanilgan she'riy san'atlar nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Istiora, tashbih.
- B. Iyhom, tajnis.
- C. Talmeh, irsoli masal.
- D. Ishtiyoq, iyhom.
- E. Tardu aks, tarsi'.

7. «To jamolingdin...» g'azalidagi

*Yerga kirsam koshki, chun yetmas ul oyg'a ilik,  
Mushkil ahvole tushubdur: yer qatig-u ko'k yiroq*

baytida qo'llangan she'riy san'atlarni aniqlang.

- A. Tazmin, mubolag'a, tashxis.
- B. Istiora, iyhom, irsoli masal.
- C. Tajnis, tazod, tarsi'.
- D. Tashbih, takrir, zulqofiyatayn.
- E. Tashxis, talmeh, tamsil.

8. «To jamolingdin...» g'azalidagi

*Furqatingda to'kgi, shoxim, ko'zlarim durri yatim,  
Ul adoqingg'a tushub holini etsa, tut quloq*

baytida shoir foydalangan she'riy san'atlar nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Tashbih, tazmin, irsoli masal.
- B. Tazod, tanosub, tazmin.
- C. Iyhom, istiora, tashxis.
- D. Tajohuli orifona, tajnis, tarsi'.

9. «Sensan sevarim...» g'azalining vaznini aniqlay olasizmi?

- A. Ramali musammani mahzuf.
- B. Mutaqoribi musammani maqsur.
- C. Hazaji musammani solim.



- D. Ramali musaddasi mahzuf.
- E. Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf.

10. «Ohkim...» g'azalida qofiyaning qaysi turidan foydalanilgan?

- A. Murdaf (ridfli) qofiya.
- B. Mujarrad qofiya.
- C. Muassas qofiya.
- D. Ridfi zoyidli murdaf qofiya.
- E. Muqayyad qofiya.

### **TO'G'RI JAVOBLARNING IZOHLI KO'RSATKICHI**

#### **SAYFI SAROYI**

1. C.
2. E. («Husning ishva sotib jon olur» jumlasida husnga inson xususiyatlari ko'chirilgan. Ikkinchi misrada esa mahbuba qaddi sarvi ravon (yuruvchi sarv)ga o'xshatilgan.)
3. A. (birinchi misrada mubolag'a qo'llanilgan, zero, qamarning (to'lin oy) mahbuba yuzidan nur olishi hayot haqiqatiga to'g'ri kelmaydigan, kuchaytirilgan tasvirdir.)
4. C. (shoirlarning ba'zilari bulbulga, ba'zilari zog'ga o'xshatilgan.)
5. B. («Yusuf va Zulayho» dostoni, uning qahramoni Yusufning benihoya go'zalligiga ishora qilinyapti.)
6. B. («Quyosh chohga botti» iborasida tabiiy voqeaga (Quyoshning botishiga) g'ayri tabiiy sabab ko'rsatilgan, shu tufayli husni ta'lil san'ati qo'llangan, deb hisoblanadi. Ikkinchi misrada «uzilgan gul»ga o'xshatish bor.)
7. B. (Quyosh atrofida aylanadigan Yerga ishora qilinyapti.)
8. B. (birinchi misrada mubolag'a, ikkinchisida o'xshatish qo'llangan.)
9. C. («yuz» so'zi ikki misrada ikki xil ma'noni (100 soni va bet-yuz) ifodalaydi, demak, baytda tajnis san'ati qo'llangan.)
- 10.D. (ikkinchi misrada qurib qolgan ildizga o'xshatish ko'zga tashlanib turibdi.)

**XORAZMIY «MUHABBATNOMA»**

1. C. (Farhod timsoliga ishora qilinayapti.)
2. A. (shakar, gavharga insonga xos uyalish holati ko'chirilgan.)
3. B. («umr bog'i» – istiora, ikkinchi misrada yor eshigi tuprog'i kavсар bulog'iga o'xshatilgan.)
4. A. (gul va tikan – tazod, raqnb tikanga, mahbuba gulga o'xshatilgan, ikkinchi misra hayotiy voqelikni ifodalaydi, demak, tamsil qo'llangan, **chimgan, gul, tikan, chechak** so'zlari o'zaro ma'nodosh, binobarin, tanosubni tashkil etadi.)
5. A. (birinchi misra mubolag'ali, ikkinchi misrada mahbuba yanoqlari Xalilulloh tashlangan o'tga o'xshatilgan, Xalilullohga ishora – talmeh.)
6. A. («jon durji» – istiora, tish la'l gavharga, yuz Quyoshga, qosh Oy burjiga o'xshatilgan.)
7. C. (shoir labni shakar, qand, jonga o'xshatar ekan, o'zini bilmaslikka soladi (tajohul orif), ikkinchi misrada esa «obi hayvon (hayot suvi) labingizda uyaladi» deya shoir suvga insonga xos uyalish holatini ko'chiradi (tashxis.)
8. A. (shoir o'zini besaru poy falakka o'xshatayapti, ikkinchi misradagi «oy» so'zi esa osmon yoritgichini emas, oy kabi go'zal mahubani ifodalayapti (istiora.)
9. A. («vafo», «baho» so'zlarida «o» unlisi raviy bo'lib kelgan, bunday qofiya esa «mujarrad qofiya» sanaladi.)
10. C. (bayt misralari «mafoiylun mafoiylun mafoiyl» ruknlari asosida yozilgan. Bunday ruknlarga ega bo'lgan vazn esa «hazaji musaddasi maqsur» deb ataladi.)

**ATOYI**

1. B. (Gulning qizarishiga g'ayri tabiiy sabab ko'rsatilgan, chunki gul uyalganidan qizarmaydi. Bunday san'at esa «husni ta'lil» sanaladi.)
2. C. (baytda «Yusuf va Zulayho» dostoni qahramonlari bo'lmish Yusuf va Ya'qublarga ishora qilinayapti.)
3. D. (baytdagi javr – vafo, dard – davo so'zlari qarama-qarshi ma'nolarni anglatadi.)



4. A. (mahbuba – pariga, mahbuba yonog‘i Eram bog‘iga o‘xshatilgan).
5. B. (shoir mahbuba barmoqlaridagi xinani qonga o‘xshatar ekan, o‘zini bilib bilmaslikka solyapti.)
6. A. (baytdagi salsabil obi, jannat ravzasi, obi kavсар, hur so‘zlari ma‘no jihatidan o‘zaro yaqin, bunday so‘zlarni qo‘llash san‘ati esa tanosub deb ataladi.)
7. C. (baytdagi «yosin» so‘zlari shakldosh bo‘lib, biri yoy (yoydek qoshlar)ni, ikkinchisi Qur‘ondagi «Yosin» surasini ifodalaydi.)
8. C. (mahbubaning suvdan toza qo‘lini suvga solishi voqeasi g‘ayri tabiiy tarzda, ya‘ni «qo‘li bilan suvni yuvyapti» deb dalillangan)
9. B. (misralar oxiridagi sodiq, oshiq qofiyadosh so‘zlaridagi «o» unlisi – «ta‘sis», «d», «sh» undoshlari «daxil», «i» – «ishbo‘», «q» undoshi «raviy» sanalib, bunday qofiya muassas qofiya hisoblanadi.)
10. D. (g‘azal misralari «foilotun foilotun foilotun foilun» ruknlari asosida yozilgan, bunday ruknlar tarkibiga ega bo‘lgan vazn esa «ramali musammani mahzuf» deb ataladi.)

### **LUTFIY**

1. B. (Oshiq nolasining toqqa yuklansa, tog‘ning chiday olmay faryod chekishi hayot haqiqatidan uzoq, bunday tasvir esa mubolag‘a (uning g‘uluv deb atalgan darajasi) sanaladi.)
2. D. (baytda «Yusuf va Zulayho» dostoni, uning qahramoni bo‘lgan Ya‘qub hayotiga ishora qilinayapti.)
3. B. (baytdagi nur, sham‘, majlis, parvona so‘zlari ma‘no jihatidan o‘zaro yaqin.)
4. C. (baytdagi «shoh» va «gado» so‘zlari zid ma‘nolarni ifodalaydi.)
5. D. (gulning qizarishiga «mahbuba yuzidan xijolat chekish oqibati» deb g‘ayritabiiy sabab ko‘rsatilgan.)
6. A. (baytdagi «quyosh» so‘zi osmon yoritgichini emas, Quyoshdek porloq yuzli mahbubani ifodalaydi (istiora), oshiqning yangi oyga o‘xshatilishi esa tashbih sanaladi.)

7. B. (birinchi misradagi «oy» soʻzi ikki maʼnoni – ham yoritgichni, ham mahbubani ifodalaydi (iyhom, istiora), ikkinchi misrada «yer qattigʻ-u koʻk yiroq» maqoli keltirilgan (irsoli masal.)

8. C. («adoq» soʻzi «oyoq» va «may idishi» – «qadah» maʼnolarida qoʻllangan (iyhom), «shohim» soʻzi podshohni emas, mahbubani ifodalaydi (istiora), durdek koʻz yoshlarning arzi hol aytishi esa insonga xos xususiyatdir (tashxis.)

9. E. (gʻazal misralari «mafʼulu mafoiyli mafoiyli faulun» ruknlari asosida yozilgan, bunday sheʼriy oʻlchov esa «hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf» deb ataladi.)

10. A. (gʻazaldagi **kabob, sharob, gulob, xarob** kabi qofiyadosh soʻzlarda raviy «b» undoshidan oldin choʻziq «o» unlisi kelgan. Bunday qofiya esa murdaf qofiya hisoblanadi.)



## **Bahr-u bayt musobaqalari uchun matnlar\***

### **OGAHIY**

#### **Gʻazaliyot**

1. Bahor ayyomi boʻlmish oʻylakim bogʻi eram sahro,  
Yeridur sayr uchun, ey guljabin, qoʻysang qadam sahro.
2. Olur har lahza yuz jon chashmi fattoninggʻa sallamno  
Toʻkar har damda ming qon tiygʻi mujgoninggʻa  
sallamno.
3. Oraz erur to mayi husn ila gul-gul sango,  
Boʻldi figʻonlar chekib ishq eli bulbul sango.
4. Orazing uzra tushub, ey shoʻx barno, kokiling,  
Boshima soldi gʻami ishqingda savdo kokiling.

---

\* Bahr-u bayt musobaqalari uchun matnlar. T., 2006. 53-b.

5. Gul yuzungni toki ko'rdi, ey pari ruxsora, gul,  
Jaybini devonalardek ayladi yuz pora gul.
6. Lutf aylabon qoshimg'a, ey gul uzor, kelgil,  
Bulbul kibi manga yo'q sabr-u qaror kelgil.
7. Lutf aylab, ey payki sabo, holimni sultoning'a ayt,  
Ya'niki jonim dardini ishqida jononimg'a ayt.
8. To sayr uchun qildi safar sarvi gulandomim mening,  
Bordi izidin qumri-yu bulbuldek oromim mening.
9. Gar desa lutf aylabon ul nozanin dilbar hadis,  
Yuz o'lukni tirguzur chiqg'och labidin har hadis.
10. Sipehri husn uza, jono, ko'rub xurshidi ruxsoring,  
Bo'lubman zarra yanglig' iztirob aylab giriftoring.
11. Gar yetar yuz ming alam javr-u jafosidin sanga,  
Ey ko'ngul, bil yaxshidur hijron balosidin sanga.
12. Agar javr et, va gar ehson, na qilsang komim uldurkim,  
Rizoyi yo'siz hech ishni qilmas muddao oshiq.
13. Qistirubdurmu boshi atrofig'a jonona gul,  
Yo magar ruxsor sham'ig'a erur parvona gul.
14. La'li shirinim-u yer tutqon qaro xol ostida,  
Yo qo'yulmish nuqta aylarda raqam bol ostida.
15. Aylay hayotim naqdini har dam nisor-u sadqasi,  
Yoshurmag'il men zordin aylab hayo qosh-u ko'zing.
16. Gah-gahi netti kelib taskin yetursang vasl ila,  
O't yonar ko'nglimda tun-kun ishtiyoqingdin sening.
17. Gah tab-u, gah larza birla yetkurub yuz ming azob,  
Jismi zorimni sarosar ustuxon etti firoq.

18. Qadding niholi navras bog'i saodat ichra,  
Ushbu nihol, yo rab, bo'lsun sango muborak.
19. Kulbamga kelsang, ey sho'x, nogoh ochib uzoring,  
Sadqang bo'lurman aylab jon naqdini nisoring.
20. Gul-i ruxsorini nogah tamosho aylasa bulbul,  
Fig'onlar tortibon o'tlug' gul-i ahmarni yod etmas.
21. Saningdek nozanin zebo parini ko'rmadim hargiz,  
Kezib dahr ichra qo'ymay bir diyor aylona-aylona.
22. Azal naqqoshi naqshing bul'ajab chekmish, ajab ermas  
Tamosho aylabon naqshingni naqqoshingdin aylansam.
23. Mehr aylab to yuzing husn avjig'a chekdim alam,  
Zarra bo'ldi iztirob aylab anga barcha sanam.
24. Munchakim dilkashdurur farxunda diydoring sening,  
Tong emasdur jon bila bo'lsam giriftoring sening.
25. Garchi ko'bdur sho'xlar bazm ichra, lekin husn aro,  
Barchasidin dilbarim bo'lg'usi mumtoz o'ynasa.
26. Agar ul oy ishi tun-kun manga yuz javr-u noz o'lsun,  
Damo-dam ko'proq o'lsun derman-u demonki oz o'lsun.
27. Noz-u ado-u g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam,  
Vah, muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina.
28. Aylagil, ey gul, vafo bulbulg'akim, besh kun sani  
Gardishi gardun bu gulshan ichra mehmon ayladi.
29. Iltifot aylab agar kulbamg'a yetkursang qadam,  
Bosh qo'yub olingda jon etkumdur isoring sening.
30. Garchi bordur husn aro har sho'xi shahroshub xob,  
Lek afzunroq alar ichra bizing mahbub xo'b.

31. Bog‘-u bahor aro ne tong bolmasa gar qarorimiz,  
Kim sari ko‘yingiz erur bog‘imiz-u bahorimiz.
32. Zor ko‘nglum bulbulin qildi asiri muftalo,  
Yuzi gulzorida zulfi sunbulin dom aylagach.
33. Chekar erdi navo qumri bu zori notavoningcha,  
Agar bo‘lsa edi sarvi sihi sarvi ravoningcha.
34. Ashkima gar kanora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun netay,  
Ohima ham shumora yo‘q, bo‘lmasa bo‘lmasun netay.
35. Yuzing ochkim, quyosh sadqang bo‘lub boshingdin  
aylansun,  
Yangi oy yuz tavozu‘ ko‘rguzub qoshingdin aylansun.
36. Ne uchun yuz chok qilmishdur yaqosin, ey pari,  
Gul yuzung ko‘igach agar bo‘lmaydurur devona gul.
37. Lutfung etding xasta ko‘nglumdin darig‘, ey shohi husn,  
Bu gadoyi zori hayroning kerakmasmu sango.
38. Ogahiy bechorani bir lutf ila shod aylagil,  
Kim hujum etmishdur anduh-u g‘ami olam ango.
39. Ogahiy, dilso‘z nazmingni eshitsa ahli ishq,  
Bo‘ynig‘a ta‘vizdek aylarlar ash‘oringni band.
40. Debon har sangdilg‘a, Ogahiy, sindurmag‘il so‘zni,  
Ki, inson obro‘yi afsarig‘a keldi gavhar so‘z.



### Наволарга йўғрилган ғазалхонлик

Шеърхонлик мусиқа билан уйғун ҳолда олиб бориладиган ноанъанавий шаклдаги синфдан ташқари ўқиш машғулотлари ўқувчилар салоҳиятлари ва эстетик дидларини камол топтиришда муҳим аҳамият касб этади.

Умумтаълим мактабларининг 9-синф адабиёт дарсларида мумтоз шоирлар ижодини ўрганишда наволарга йўғрилган ғазалхонлик кечаси ўтказиш дарс билан синфдан ташқари ўқиш ўртасидаги ўзаро узвийлик ва изчилликни таъминлайди. Шундай машғулотлардан бирини Навоий, Бобур ва Машраб ғазалиётига бағишлаб ўтказдим.

Бундай машғулотни махсус тайёргарликсиз ташкил этиб бўлмайди. Шу боис машғулотдан 2 ҳафта олдин ўқувчиларга Алишер Навоийнинг «Қаро кўзим», «Топмадим», Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг «Назм дурдоналари», Бобораҳим Машрабнинг «Дилим дарёи нурдир» номли шеърий тўпламларини синфдан ташқари мутолаа учун тавсия қилдим. Ғазалларни ифодали ёд ўқишни мушоира шарти тарзида белгиладим. Назмга навонинг ҳамоҳанглигини таъминлаш мақсадида мазкур шоирлар ғазаллари билан куйланган қўшиқларни магнитофон тасмасига ёздириб олдим.

Адабиёт хонасини шеърхонликни кўтаринки руҳда ўтказишга мослаб безатдим. Сўнгра хона ўртасига мўъжазгина боғ макетини жойлаштирдим. «Ғазалхонлик бўстони»га хуш келибсиз!» сўзлари ёзиб қўйилган рамзий боғ макетини «Боғи Бобурий»га қиёслаб, гуллар билан безатдим.

Макетдаги супача устидаги кўҳна лавҳга ҳазрат Навоийнинг саҳифалари очиқ ҳолда турган бетакрор «Хамса» асарини қўйиб қўйдим. Кумуш шамдонга ўрнатилган шам ўқувчиларда шоирона кайфият уйғотди.

Ушбу макетни яратишда турли сунъий гуллар, ёғочлар, рангли картон қоғозлар, бўёқ, пластилин, елим ва бошқа зарур аксессуарлардан фойдаландим.

Хонанинг бир бурчагида ташкил этилган кўргазмадан мумтоз шоирларнинг суратлари, асарлари билан бирга қўйидаги ҳикматли сўзлари ўрин олди:

*Бу гулшан ичраки йўқдур бақо гулига сабот,  
Ажаб саодат эрур чиқса яхшилик била от.*

Алишер Навоий

*Бори элга яхшилиғ қилғилки, мундин яхши йўқ,  
Ким дегайлар даҳр аро қолди фалондин яхшилиғ.*

Заҳириддин Муҳаммад Бобур

*Тикансиз – гул, садафсиз – дур, машаққатсиз ҳунар  
йўқтур,  
Риёзат чекмагунча ёр васлиға етиб бўлмас.*

Бобораҳим Машраб

Мушоира бошланишидан аввал стол-стуллар доира шаклида жойлаштирилди. Ўқувчиларни «Навоий ворислари», «Бобур ворислари», «Машраб ворислари» деб номланган гуруҳларга ажратдим.

Навоийнинг қўйидаги ғазалини ўқиб, ўқувчиларни мушоирага таклиф этдим:

*Кимки бир кўнгли бузуғнинг хотирин шод айлагай,  
Онча борким, Каъба вайрон бўлса обод айлагай...<sup>1</sup>*

Магнитофондан таралган «Чўли ироқ» навоси ўқувчиларни хаёлан буюк мумтоз шоирларимиз яшаган олис замонларга етаклади, куйдаги сеҳр дилларга кўчди.

Мушоирани «Навоий ворислари» жамоаси вакили бошлаб берди ва «Муножот» куйига монанд равишда ғазал айтди:

*Эй юзунг гулбаргига ошуфтау ҳайрон сабо,  
Телбалардек гулшани кўюгда саргардон сабо ...<sup>2</sup>*

Навоийнинг сеҳрли сатрларидан таъсирланган «Бобур ворислари» гуруҳи мушоирани давом эттирди:

*Сочининг савдоси тушти бошима боштин яна,  
Тийра бўлди рўзгорим ул қаро қоштин яна ...<sup>3</sup>*

Ўз навбатида, «Машраб ворислари» жамоасининг вакили ҳам илоҳий ишқ туйғулари билан йўғрилган куйидаги мисраларни ёддан айтди:

*Ажаб Мажнун эрурман дашт ила саҳроға сиғмамдур,  
Дилим дарёи нурдур, мавж уриб дунёға сиғмамдур ...<sup>4</sup>*

Гуруҳлар бир бора ўз чиқишларини намойиш қилишгач, мусиқий танаффусда магнитофондан Машрабнинг машҳур «Ўртар» ғазали билан ижро этиладиган қўшиқ янгради:

*Агар ошиқлиғим айтсам, куюб жону жаҳон ўртар,  
Бу ишқ сиррин баён этсам, тақи ул хонумон ўртар ...*

Магнитофондан таралган сайроқи қушларнинг ёқимли нағмалари жўрлигида мушоира давом этди.

Мушоиранинг ушбу шартида «Навоий ворислари» гуруҳидаги ўқувчи Бобурнинг «Сўрма ҳолимники...» деб бошланувчи ғазалини, «Бобур ворислари» қатнашчиси Машрабнинг «Мен нола қилай шому саҳар...» ғазалини, «Машраб ворислари» шеърхони эса Навоийнинг «Кўнглум ўртансун» ғазалини ёддан ифодали ўқийди.

Сўнгра магнитофондан Навоийнинг «Қилғил» ғазали билан айтиладиган қўшиқ синф узра таралди.

Шу зайлда давом этган шеърхонлик кечасида латиф куй ва қўшиқлар ҳамроҳлигида турли мавзулардаги назм жавоҳирлари ёддан айтилди.

«Машраб ворислари» гуруҳи аъзоси Бобур қаламига мансуб «Яхшилиғ» қўшиғига пайваста бўлган қуйидаги ғазални ёддан ўқиш билан мушоирани ниҳоясига етказди:

*... Дўстларнинг суҳбатида не хуш ўлғай баҳси шеър,  
То билингай ҳар кишининг таъби бирла ҳолати ...<sup>5</sup>*

Шундан сўнг «Энг моҳир ғазалхон гуруҳ» аниқланди. Ўқувчиларнинг ғазал ўқиш санъатини қуёш, ой, юлдузлар шакли туширилган рағбат карточкалари билан баҳолаб, натижаларни эълон қилдим. Қуёшли карточкаларни энг кўп йиғган жамоа ғолиб деб топилди.

Хулоса қилиб айтганда, бундай машғулотлар ўқувчилар қалбига ғазалларда тараннум этилган ҳаёт мадҳи, ишқ, вафо, инсонийлик ғояларини сингдириш ҳамда уларнинг бадиий-эстетик тафаккурини ривожлантиришга катта ҳисса қўшади.

**Саодат ҚАМБАРОВА,  
Тошкент вилояти Янгийўл туманидаги  
31-мактабнинг она тили ва адабиёт ўқитувчиси.**

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Топмадим. Ғазаллар. Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. 735-б.

<sup>2</sup> Алишер Навоий. Қаро кўзим. Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. 5-б.

<sup>3</sup> Шоҳ ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Назм дурдоналари. Т.: «Шарқ», 1996. 19-б.

<sup>4</sup> Бобораҳим Машраб. Дилим дарёи нурдур. Т.: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2004. 124-б.

<sup>5</sup> Шоҳ ва шоир Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Назм дурдоналари. Т.: «Шарқ», 1996. 35-б.



---

## SO'RAGAN EKANSIZ

---

*Савол: Мирзакалон Исмоилийнинг бадиий маҳорати нафақат унинг ўзи ёзган асарлари, балки таржима қилган асарларида ҳам намоён бўлган. Шу ҳақда маълумот берсангиз.*

**Гулруҳ Соипова,  
Тошкент вилояти Тошкент туманидаги  
26-мактаб ўқитувчиси.**

### **Этель Лилиан Войничнинг «Сўна» романи таржимаси ҳақида**

Таниқли адиб Мирзакалон Исмоилий Л.Н.Толстойнинг «Анна Каренина», М.Шолоховнинг «Инсон тақдири», Рашод Нури Гунтекиннинг «Чолиқуши» романларини ўзбек тилига юксак маҳорат билан таржима қилган. Мутаржим ўгирган асарлар қаторида инглиз адибаси Этель Лилиан Войнич (1864–1960)нинг «Сўна»<sup>1</sup> романи таржимаси диққатга сазовордир.

«Сўна» – Англиянинг ижтимоий муаммолари, уларнинг ечимини топиш учун олиб борилган мардона курашларни акс эттиришга бағишланган мумтоз асардир.

«Сўна» сингари адабий-тарихий обидалар таржимаси мутаржимдан ҳам олимга хос аниқлик, синчковликни, ҳам адибга хос нозик дидни, баёнда қисқаликни талаб қилади. Асардаги мавжуд турфа шахслар руҳияти ва ҳис-туйғуларини синчиклаб ўрганмай туриб, тарихий, миллий, географик хусусиятларни ҳисобга олмай туриб, унинг таржимасини амалга ошириб бўлмайди.

Шунинг учун ҳам Мирзакалон Исмоилий Войничнинг таржимаи ҳоли, ижтимоий келиб чиқиши ва у яшаган даврни синчиклаб ўрганган.

Этель Лилиан Войнич 1864 йилда Ирландияда туғилган. Унинг отаси Ж.Бул таниқли инглиз олими бўлиб, рамзий мантиқнинг асосчиси ҳисобланади. Замоनावий кибернетика ана шу мантиқ заминида ривож топган. Онасининг тоғаси Ж. Эверест эса машҳур географ бўлиб, Ҳимолай тоғларида илмий тадқиқотлар олиб боргани шарафига дунёнинг энг баланд чўққисига «Эверест» деб номи муҳрланган. Демак, «Сўна» романининг жаҳоний шуҳрат топишида сулолавий анъаналарнинг ҳам таъсири бўлган.

Ушбу асарнинг жозибаси аввало бош қаҳрамон Артурдаги жанговар оптимизм, ғалабага ишонч ва курашга даъват, кишиларга муҳаббат, инсон шахсига чуқур ҳурмат, собитқадамлик, халқ учун жонини фидо қилишда намоён бўлади.

«Сўна» романи ҳозиргача жаҳоннинг 25 тилига таржима қилинган. Мутахассисларнинг эътирофича, «Сўна» қисман реалистик асар, яъни баъзи сюжет чизиқлари муаллифнинг саёҳатлари давомида кўрган-кечирган воқеа-ҳодисалари асосида умумлаштирилган.

Гарчи «Сўна» ўзбек тилига аслиятдан эмас, балки рус тилидаги таржимасидан – билвосита ўгирилган бўлса-да, жуда кўп ҳолларда таржимон асар матни ва руҳиятидан келиб чиққан ҳолда тилимиз хазинасидан имконияти борича сўз ва ибораларни қидириб топиб, таржимани аслиятга муносиб юқори савияда амалга оширишга ҳаракат қилган. Масалан:

<b>аслиятда:</b>	<b>русчада:</b>	<b>ўзбекчада:</b>
I am terrible <b>book worm</b> , said direktor (p. 25)	<b>Я заядлий книж- ный черв</b> сказал ректор (с. 44 )	Мен ҳеч тўйиб ўлмайдиган <b>китоб- хўрман</b> . (35-б.)

Бу ўринда инглизча «book worm», рус тилидаги «книжный червь» ибораларида чувалчанг кўзда тutilган. Ўзбек таржимони эса «чувалчанг»нинг муқобилини бериш мақсадида уни «китобхўр» билан алмаштирган, натижада ўзбек тили хазинасига янги ибора кириб келган.

Таржимон маҳоратини далиллаш учун яна бир мисол:

Аслиятда (р. 26):	Русчада (с. 46):	Ўзбекчада (36-б.):
He wrote to Arthur from Rome is a cheerful and tranquil: evidently his <b>depression</b> was passing over.	Монтанелли спокойно и непрерывно писал об этом Артуру из Рима: очевидно, его <b>мрачное настроение</b> прошло.	Буни Артурга Монтанеллининг ўзи ҳам Римдан ёзиб юборди, хотиржам, шоду хуррам бир оҳангда ёзди. Юрагида <b>қабзиятнинг</b> тарқала бошлагани равшан эди

Аслиятдаги «depression», русча вариантдаги «мрачное настроение» сўзлари икки халқ учун таниш ва тушунарли, лекин ўзбекчадаги «қабзият» бизнингча барчага ҳам тушунарли эмас. Таржимон бу ўринда тилимизда мавжуд, аммо ҳали ҳануз муомалага кирмаган сўзларни адабиётга олиб кирган. Мутаржимнинг мақсади «эскирган» сўз ва ибораларни муомаладан чиқариш эмас, уларни истеймолга олиб кириш орқали янгидан ҳаёт бағишлаш бўлган. Аслида, бу ҳам тилшунос олимларимиз олдида турган долзарб вазифалардан биридир.

**Фотима НУРИДДИНОВА,**  
**ЎзМУ тадқиқотчиси.**

<sup>1</sup> Э.Л.Войнич. Сўна. Т., 1956.

### Бешёғоч/Бешоғоч

Бешёғоч Тошкент шахрининг қадимий даҳаларидан бири бўлиб, тарихий, географик, топографик, элшунос-лик, шаҳарсозлик ва бошқа тур манбаларда Бешоғоч тарзида ҳам ёзилган.

Бешёғоч/Бешоғоч номининг таркиби: **беш** (тўрт билан олти орасидаги санок сон, ҳисоб рақами)+**ёғоч/оғоч** сўзларидан иборат. Ўзбекистонда беш сўзи билан бошланадиган сув ўзанлари, хусусан, ариқ, булоқ номлари жуда кўп. Бешариқ (кўпгина туманларда ариқ номи), Бешқозоқ (қадимда ариқ, сўнгги даврларда қишлоқ номига айланган), Бешқўл, Бешчашма, Бештерак, Бешдарак (арик, қишлоқ номи), Бешбулоқ (тоғли туманларда булоқ, адир, қишлоқ номи). Бешгумбаз (кўча, маҳалла), Бешкапа, Бешмачит, Бешпайкал, Бешкалтак, Бешкўса, Бешкал, Бешдара, Бешпанжа, Бештут, Бешқўрғон, Бешқиз, Бешўғил, Бешўчоқ, Бешуйли, Бешэркак, Бештом, Бештахта (Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятида) каби ойконим (қисман этноним: бешўғил, бешэркак, бешкал, бешкўса, бешуйли, бешкалтак)лар шулар жумласидандир. Бу номлардаги беш сўзи аниқ санок, миқдор маъноси билан бир қаторда кўп, учдан ортиқ, бир неча каби маъноларни ҳам ифодалаган.

Ном таркибидаги **ёғоч/оғоч** сўзи ҳозирги кунда дарахт танаси ва шохларининг қуригани, ёғочдан қилинган қурилиш материали деган маънони англатсада, қадимги туркий, эски туркий ва эски ўзбек тилида дарахт, кўкариб турган дарахт деган маънони билдирган. Ёғоч/оғоч – туркий, ўзбекча сўз, дарахт – форсча,

тожикча сўздир. Ёғоч/оғоч сўзи қадимдан истеъмолда бўлган. Дарахт сўзи боғдорчилик ривожи билан боғлиқ тарзда ўзлашган ўзлашмадир. У ёғоч/оғоч сўзини истеъмол доирасидан сиқиб чиқариб, маъносини торайтирган, ўсиб турган дарахт маъносини ёғоч/оғоч сўзидан ўзига ўзлаштириб олган. Туркий тилларнинг ўтмишида дастлаб бу сўз оғоч фонологик қиёфасида бўлган. Оғоч сўзига [й] фонемаси сўнгги даврларда қўшилган.

**Ёғоч** тарзида қўлланиш сўнгги даврларга, **оғоч** шаклида қўлланиш эса нисбатан қадимги даврларга хос. Яна бир ҳолатни қайд этиш жоизки, ушбу сўз сўз бирикмаси, қўшма сўз, топонимлар, этнонимлар таркибида сўнгги компонент бўлиб келади. Ёғоч/оғоч сўзидан олдинги калима ундош билан тугаса, албатта оғоч товуш қиёфали шакли қўлланилади: Бешёғоч эмас, Бешоғоч, Қўшёғоч эмас, Қўшоғоч каби. Бу – оғоч сўзининг бирламчи, ёғоч сўзининг иккиламчи фонологик қиёфаси билан боғлиқ ҳолат. Оғоч сўзининг бирламчи, қадимий фонологик шакли жой номларининг дастлаб оғоч сўзи билан шаклланганлигини кўрсатади: Бешоғоч, Қўшоғоч – қадимий ном. Бешёғоч, Қўшёғоч – иккиламчи, сўнгги даврларда товуш қиёфасини ўзгартирган ном.

*Бешёғоч/Бешоғоч* номи гидроним сифатида пайдо бўлганлиги илмий ва амалий ҳақиқатга яқинроқ. Гидроним учун ёғоч/оғоч сўзининг дарахт маъноси эмас, ўлчов тури, ўлчов ашёси, ўлчов бирлиги маъноси асос бўлган. Қадимда ариқ, анҳор каби катта сув манбаларидан кичик сув ўзанларига – ариқ, жўй, жўяк, қулоқ, шох, шохобларга тенг миқдорда бўлишда сопол буюмлар (мўнди, кўза, қувур), ичи ковак қилиб ўйилган ёғоч қувур (куви, кувига ўхшаш мослама)дан, тошмосламалардан, чўян ва бошқа металл мосламалардан фойдаланилган.

Тарихий манбалардан маълумки, Анҳор сув ўзанидан Тошкент шаҳри ва унинг атрофини ичимлик суви сифа-

тида ва деҳқончилик ерларини суғориш учун фойдаланилган. Ҳозирги Бешёғоч/Бешоғоч даҳаси ҳудудининг бошланиш қисмига келиб Анҳордан бешта ариқ ажратилган. Ана шу ариқлардан оқизилган сув даҳа ҳудудидаги маҳалла, мавзе, кўча, гузар каби аҳолига мансуб ерларни суғоришга сарфланган. Ариқларга эса сув тенг миқдорда ёки аҳолисининг, ер майдонининг ҳажми инобатга олинган ҳолда тақсимланган. Ичи ўйилган ёғоч сув ўлчови вазифасини ва ариқ бандларининг ювилиб кетмаслиги учун тўсиқ воситасини ўтаган.

Хулоса қилиб шуни айтиш жоизки, ёғоч/оғоч сўзлик жой номлари дастлаб гидроним сифатида пайдо бўлган, сўнг ойконим сатҳига ўтган. Шу ҳудуд учун энг муҳим, зарур, аҳамиятли объект анҳордан сув оладиган бандлар, сув тақсимланган жой ҳисобланган, номланишга шу объект асос бўлган. Демак, Бешёғоч/Бешоғоч бешта ариққа сув тақсимланган банддир.

**Тўра НАФАСОВ,  
Қарши ДУ профессори.**

*Журналдан кўчириб босилганда «Тил ва адабиёт таълими»дан олинди, деб изоҳланиши шарт.*

*Журналда нашр этилган мақолаларда муаллифларнинг таҳририят нуқтаи назарига мувофиқ келмайдиган фикр-мулоҳазалари бўлиши мумкин.*

*Таҳририятга келган қўлёзмалар муаллифларга қайтарилмайди.*

Босмахонага 18.10.2010 йилда топширилди. Офсет усулида чоп этилди. Қоғоз бичими 60x84  $\frac{1}{16}$ . Шартли босма табоғи 5,58. Нашриёт ҳисоб табоғи 5,5. «Arial» гарнитураси. 12; 14 кегл. Адади 4810 нусха. Буюртма № \_\_\_\_\_.

**Журнал индекси: 872**

**«RELIABLE PRINT» МЧЖ босмахонасида чоп этилди.  
Манзил: Тошкент, Фурқат кўчаси, 2-уй.**